

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI**

**Rahmanova Oygul Shuxradovna**  
**5230100-“Iqtisodiyot (Makroiqtisodiyot)” ta’lim yo`nalishi bo`yicha**  
**bakalavr darajasini olish uchun**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**O'zbekistonda tijorat banklarida bank xizmatlari samaradorligini**  
**oshirish yo`nalishlari**  
**(ATIB Ipoteka bank Xorazm viloyati filiali).**

**Ilmiy rahbar:**

**k.o`q.M.Aminova**

**Urganch 2016 yil**

## **MUNDARIJA**

### **KIRISH**

#### **1- BOB. TIJORAT BANKLARI KAPITALINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY BANK XIZMATLARINING O'RNI VA AHAMIYATI**

- 1.1. O`zbekistonda tijorat banklari kapitalining tarkibi
- 1.2. Zamonaviy bank xizmatlarining bank tizimidagi roli
- 1.3. O`zbekistonda tijorat banklarida zamonaviy xizmatlarning bank kapitallashuv darajasini oshirishdagi roli

#### **2- BOB. O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARIDA BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI (ATIB IPOTEKA BANK XORAZM VILOYATI FILIALI)**

- 2.1. O`zbekistonda bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlashdagi muammolar
- 2.2. O`zbekistonda bank tizimida zamonaviy xizmatlar samaradorligini oshirish yo`nalishlari
- 2.3. Tijorat banklari kapitallashuv darajasi va depozit bazasini mustahkamlash imkoniyatlari

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirishni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash O'zbekiston Respublikasi Inqirozga qarshi choralar dasturining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirishning mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalashdagi roli masalasiga alohida to'xtalib, "O'tgan yili bank tizimini yanada mustahkamlash, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish va investitsiyaviy faolligini kengaytirish ta'minlandi. Bank tizimining jami kapitali 2014-yilga nisbatan 23,3 foiz ko'payib, 7 trillion 800 milliard so'mga yetdi. So'nggi 5-yilda mazkur ko'rsatkich 2,4 barobar o'sdi. Bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi qariyb 24 foizni tashkil qildi. Bu umumiy qabul qilingan xalqaro standartlardan 3-marta, bank likvidligi esa eng yuqori ko'rsatkichlardan 2-marta ko'pdir."<sup>1</sup>, deya ta'kidladilar.

Hozirgi kunda milliy to'lov tizimi negizida Markaziy bankning yagona banklararo to'lov tizimi, 29 ta tijorat bankining ichki to'lov tizimlari, shuningdek, bank kartalari bo'yicha barcha tijorat banklarini qamrab olgan «Uz-Kart» banklararo chakana to'lov tizimi, aholidan uyali aloqa xizmati, kommunal va boshqa to'lovlarni qabul qilish bo'yicha «Uz-Paynet» to'lov agentlik tarmog'i hamda «SMS-TO'LOV» chakana to'lov tizimlari faoliyat yuritmoqda.

Mazkur ishlarning samarasi o'laroq, 2015 yil 1 may holatiga respublikamiz bo'yicha qariyb 44 mingdan ziyod xo'jalik yurituvchi sub'ektlar «Bank-Mijoz» va Internet-banking dasturiy majmualari xizmatlaridan foydalanib kelmoqda. Mijozlar masofadan turib, kompyuter va elektron aloqa tizimi orqali bank operatsiyalarini amalga oshirmoqda.

Mamlakatimizda o'ttizdan ortiq bank samarali faoliyat yuritmoqda. Ularda ko'rsatilayotgan barcha xizmat turlari haqidagi ma'lumotlar "Ko'rgazma savdo

---

<sup>1</sup> Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 16 yanvar 2016 yil.

markazi” pavilyonlaridan joy olgan. Shuningdek, bank tizimi xodimlari va ishtirokchilarning samarali muloqot o‘tkazishi uchun sharoitlar yaratilgan bo‘lib, seminarlar, taqdimotlar, uchrashuvlar, mahorat saboqlari qizg‘in davom etmoqda. Bunda aholi va bank mijozlari taklif etilayotgan xizmatlar bilan tanishish, taqqoslash, mutaxassislardan kerakli maslahatlarni olish, muzokaralar o‘tkazish imkoniga ega bo‘ldi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tijorat banklarining kapitallashish muammosining nazariy va amaliy jihatlarini qator xorijlik iqtisodchi olimlar – A.Simanovskiy, V.Usoskin, D.Polfreman, G.Beloglazova, J.Sinki, O.Lavrushin, J.Matuk, D.Maknoton, K.Barltrop, X.Furukava, E.Rid, E.Rode, R.Kotter, E.Dolanlarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan.

Masalan, A.Simanovskiy Bazel qo‘mitasi tomonidan taklif qilingan kredit riskining 150 foizli darajasini qo‘llashni maqsadga muvofiq emas, deb hisoblaydi.

O‘zbekistonlik olimlardan B.Babaev va A.Omonovlarning dissertatsiya ishlarida tijorat banklari kapitallashishining ayrim jihatlarini tadqiq qilingan. Masalan, A. Omonovning “Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida tijorat banklarining kapitallashish muammosi mikrodarajada va miqdoriy jihatdan tadqiq qilingan.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi,** O‘zbekistonda tijorat banklarida bank xizmatlari samaradorligini oshirish yo‘nalishlari (ATIB Ipoteka bank Xorazm viloyati filiali) yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:**

- tijorat banklari tizimida zamonaviy xizmatlar samaradorligini oshirish va tegishli ilmiy xulosalarni shakllantirish;
- respublikamiz tijorat banklarida zamonaviy to‘lov turlarini shakllantirish;
- tijorat banklari kapitali tarkibini shakllantirish va yetarliligini ta'minlashning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq qilish va tegishli ilmiy-nazariy xulosalarni shakllantirish;
- respublikamiz tijorat banklari kapitallashish darajasining o‘zgarishiga xos tendentsiyalarni aniqlashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab

chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti** bo`lib, O`zbekiston Respublikasining yirik tijorat banklari hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishning predmeti** tijorat banklari kapitalini shakllantirish va oshirish jarayonida vujudga keladigan moliyaviy munosabatlar tashkil etadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari mintaqaviy iqtisodiyot bo`yicha xorijiy va mamlakatimiz olimlarining asarlarida bayon qilingan nazariyalar, ilmiy kontsepsiyalar, ishlanmalar, shuningdek, O`zbekiston Respublikasining Qonunlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari tadqiqotning **nazariy va metodologik asosi** bo`lib xizmat qildi.

**Ishning axborot-emperik bazasi.** O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya Vazirligi va ularning xududiy bo`linmalarining mamlakatimiz mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo`yicha statistik ma'lumotlari, tahdiliy materiallari, shuningdek, Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar markazi ilmiy ishning axborot bazasi bo`lib xizmat qildi.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi.** Ish kirish, ikkita bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

# **1- BOB. TIJORAT BANKLARI KAPITALINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY BANK XIZMATLARINING O'RNI VA AHAMIYATI**

## **1.1. O'zbekistonda tijorat banklari kapitalining tarkibi**

Bank kapitalini shakllantirishning asosiy manbai bo'lib har doim aksionerlarga to'lanmagan va bankda taqsimlanmagan holda qoldirilgan fonda xizmat qilgan. Kapitalni jalb qilishning afzal tomoni shundan iboratki, bank kapitalni shakllantirish jarayonida ochiq bozordan mustaqil bo'ladi va shu bilan birga qarzlarni joylashtirish bo'yicha harajatlardan holi bo'ladi. Ichki imkoniyatlardan foydalanib kapitalni oshirish nafaqat mavjud aksionsrlarning jamiyat ustidan bo'lgan nazoratini susaytirmaydi, balki aksiyalarga hisoblangan dividendlar ham kamaymaydi. Masalan, bank kapitalni ko'paytirish yo'li sifatida aktsiya chiqarishni tanladi, aksiyalarning bir qismi yangi aksionerlarga sotildi va bu esa mazkur aksionerlar keyinchalik jamiyatning kelajakdagi ma'lum foyda qismiga va uning siyosatiga aralashishga, hal qilishda qatnashishga xuquqni qo'lga kiritishini anglatadi.

Qo'shimcha kapitalga bo'lgan extiyojni qondirishda foydaning o'sishiga tayanishga e'tibor joriy foydaning qaysi qismi taqsimlanmagan holda qolishi va qaysi qismi aksionerlarga dividend ko'rinishida tarqatilishining echimiga qaratilishini bildiradi, ya'ni dividendlar ulushi aniqlanadigan, ushlab qolingan foyda qismini aniqlanishi zarur. Ushlangan foyda kattaligi bankni boshqarishda katta ahamiyatga ega. Juda past darajada o'rnatilgan kattalik (ya'ni dividendlarning ulushi katta bo'lganda) u bank kapitali ichki manbalarining sekin o'sishiga olib keladi. Shu bilan birga u bankning bankrotlik extimolini oshiradi va daromad keltiruvchi bank aktivlarining o'sishini chegaralaydi. Ushlangan foydaning kamligi esa (ya'ni dividendlarning ulushi kichik bo'lganda) aksionerlarga to'lanadigan dividendlarning kamayib ketishiga olib keladi. Bu esa bank aksiyalarining qiymati kamayib ketishiga olib kelishi mumkin. Bank aksiyalarining yuqori bozor qiymatini ta'minlovchi siyosat bankning optimal dividend siyosati hisoblanadi. Agar bank aksiyalarining daromadliligi xatarlilik darajasi teng bo'lgan boshqa investitsiyalardan kelgan daromadga teng bo'lsa, bankka yangi aksionerlar jalb

qilinishi va eskilari esa kelajakda ham bank aktsiyalarining ushlovchisi bo`lib qolishi mumkin. Bank uchun katta ahamiyatga molik bo`lgan masala - bu bank tomonidan stabil dividend siyosatini olib borilishidir. Agar bank dividendlari hech bo`lmasa eski darajada saqlansa ham, u investorlarning aktsiyalarga ishonchli daromad manbai sifatida qarashga va aktsiyalarni sotib olishga undovchi vosita bo`lib xizmat qiladi. Ko`pgina tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, bank aktsiyalari bo`yicha dividendlarning kamayishi xaqida e`lon qilinishi ularning bozor bahosi tushib ketishiga sabab bo`ladi. Bu nafaqat mavjud aksionerlarning xayratlanishiga sabab bo`ladi, balki bo`lishi mumkin bo`lgan aksionerlarni o`z fikridan qaytishiga ham olib kelishi mumkin va oxir oqibatda qo`shimcha kapital to`plashga halaqit berishi mumkin.

Kapital jalb qilishning tashqi manbalari. Tijorat banklari faoliyati davomida kapitalni jalb qilishning tashqi manbalaridan ham foydalanishga zaruriyat tug`iladi. Kapitalning tashqi manbalariga quyidagilar kiradi:

- oddiy aktsiyalarni sotish;
- imtiyozli aktsiyalarni sotish;
- o`zaro muddatli qarz majburiyatlarini chiqarish;
- aktivlarni sotish;
- asosiy fondlarning ayrim turlarini ijaraga olish, masalan, bankka tegishli binolarni.

Bank qaysi bir yo`lni tanlashi ko`pgina omillar tasiri ostida shakllanadi, shulardan biri bu aksionerlarning daromadiga ta'sir qilishidir. Undan tashqari bu masalani hal qilishda bankning xatarga beriluvchanligi, bank nazoratiga ta'siri, aktiv va majburiyatlar bozorining ahvoli ham ma'lum miqdorda rol o`ynaydi.

Oddiy aktsiyalarning sotilishi. Umuman olganda oddiy aktsiyalarning emissiyasi kapitalni jalb qilishning tashqi manbalari ichida oddiy aktsiyalarni joylashtirish harajatlarning kattaligi va aksionerlar daromadlarining qarz majburiyatlari egalariga nisbatan tutgan o`rni bilan bog`liq xatarlari bilan ajralib turadi. Chiqarilgan aktsiyalar bank ishlatishi mumkin bo`lgan qarzlar ulushini

kamaytiradi va shu bilan birga bank tomonidan kelgusida qo`shimcha mablag` jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Imtiyozli aksiyalarning sotilishi. Imtiyozli aksiyalarning sotilishi oddiy aksiyalarning sotilishiga o`xshab harajatni ko`p talab qiluvchi manbalardan hisoblanadi. Imtiyozli aksiyalar egapari oddiy aktsiya egalariga nisbatan bank foydasiga birlamchi xuquqqa ega bo`lganliklari sababli imtiyozli aksiyalar chiqarilgandan so`ng oddiy aksiyalar bo`yicha dividendlar kamayib ketishini kutish mumkin. Imtiyozli aksiyalar ham oddiy aksiyalar kabi bankning kelajakda qarz olish imkoniyatini oshiradi.

Subordinatsiyalashgan qarzlarni chiqarish. Subordinatsiyalashgan qarz qog`ozlarining bank uchun afzalligi shundaki, ular qarz majburiyatlari ulushining va bitta aktsiyaga to`g`ri keladigan foydaning oshishiga olib keladi, qachonki mazkur qarzlardan foydalanish oqibatida keladigan daromad unga to`lanadigan harajatlardan yuqori bo`lsa. Undan tashqari mazkur qarz majburiyatlaridan kapital to`ldirish, oshirish manbai sifatida qo`llaniladigan davlatlarda qarz bo`yicha foiz to`lovlari soliq to`lanadigan bazani kamaytiradi. Yana bir narsani ko`rsatib o`tish lozimki, bu qarz turi ham boshqa qarzlar kabi bankrotlik xatarini oshiradi.

Aktivlarni sotish va ko`chmas mulk ijarasi. O`z faoliyatini bir maromda ushlab turishda va kapitalni boshqarishda banklar o`z asosiy vositalarini, masalan, bank joylashgan binoni sotadi va uni yangi bino egasidan ijaraga oladi. Odatda bu operatsiya bankka katta hajmdagi mablag` olib kelishiga va o`z kapitalining sezilarli oshishiga, bankning kapital pozitsiyasi kuchayishiga olib keladi. Bu kabi operatsiyalar inflyatsiya va iqtisodiy o`sish sur'ati bank balansida aks ettirilgan mol-mulkning joriy qiymatining uning boshlantich qiymatiga nisbatan o`zgarishidan yuqoriroq bo`lgan davrlarda qo`llanilganda katta samara bergan.

Agar amaldagi qonun va qoidalar bo`yicha bank mulkining eskirish meyorlari qanchalik katga bo`lsa. bank uchun mazkur operatsiyani amalga oshirish uchun manfaatdorlik shunchalik katta bo`ladi.

Rivojlangan davlatlarda ko`pgina tijorat banklari bank kapitalining bank aktivlariga bo`lgan nisbatini yaxshilash uchun aktivlarni sotish usulidan

foydalanishmoqda. Bu usulga asosan bank tomonidan xatarliligi yuqori bo`lgan bank aktivlarining o`shishi sekinlashtiriladi. ya'ni sekin-asta ular xatarlilik darajasi past aktivlarga (davlat qimmatbaho qog`ozlari, davlat tomonidan taminlangan kreditlarga) almashtiriladi. Bu bilan kapital va xatarlilik darajasi bo`yicha tortilgan aktivlar o`rtasidagi nisbat bank uchun ijobiy tomonga siljiydi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banki kapitalining minimal miqdori deganda ikki xil tushuncha nazarda tutiladi:

1)Markaziy bankning, bank operatsiyalarini bajarishga xuquq beruvchi litsenziyasini olish va bank o`z faoliyatini boshlash uchun me'yoriy xujjatlarda belgilab kuyilgan bank kapitalining minimal miqdori.

2)Iqtisodiy normativlarni bajarilishi ustidan nazorat qilish uchun asos sifatida qo`llaniladigan kapitalning yetarlilik miqdori.

Shu bilan birga, tijorat banki asosiy kapitalining yetarlilik miqdori ularning faoliyatiga nisbatan qo`llanilayotgan iqtisodiy normativlarni aniqlashda ham asosiy iqtisodiy mezon bo`lib hisoblanadi. Masalan, tijorat banklarining bitta mijozga yoki o`zaro bog`liq mijozlar guruxiga beradigan ishonchli kreditlarining maksimal miqdori birinchi darajali bank kapitalining 5 foizidan oshib ketmasligi lozim. Agar bunday mijozlarga ta'minlangan kreditlar berilayotgan bo`lsa, u holda bunday kreditlarning maksimal miqdori birinchi darajali bank kapitalining 15 foizidan oshib ketmasligi kerak. Tijorat banklarining mijozlarga beradigan yirik kreditlarining umumiy miqdori birinchi darajali bank kapitalidan 8 martadan oshib ketmasligi kerak.

Yoki ochiq valuta pozitsiyalariga nisbatan o`rnatilgan iqtisodiy normativni olaylik. Ushbu normativga ko`ra, tijorat bankining bitta valutadagi ochiq pozitsiyasining miqdori bank kapitalining 5 foizidan, barcha valutadagi ochiq pozitsiyasining miqdori esa bank kapitalining 20 foizidan oshib ketmasligi lozim.

Xuddi shuningdek, bankning bir korxonaning ustav kapitaliga investitsiya qilish uchun sotib olgan qimmatli qog`ozlar miqdori bankning birinchi darajali kapitalining 15 foizidan, barcha emittentlar ustav kapitaliga va boshqa qimmatli qog`ozlariga qilgan investitsiyalari miqdori bankning birinchi darajali kapitalining

50 foizidan, oldi-sotdi uchun nodavlat qimmatli qog'ozlariga qilingan bank kuyilmalari bankning birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak.

Demak, bank kapitalining yetarlilik miqdori tushunchasidan tijorat banklari faoliyatiga nisbatan Markaziy bank tomonidan qo'llanilayotgan iqtisodiy normativlarni belgilashda va ularning bajarilishini nazorat qilishda foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda dunyoning 150 dan ortiq mamlakatida tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirishda va uning yetarlilik darajasini belgilashda xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan andozalardan asos sifatida foydapanilmoqda.

Xalqaro Bazel qo'mitasining andozapariga e'tiboran bankning jami kapitali asosiy va qo'shimcha kapitapga ajratiladi. Ushbu andozalar birinchi marta 1988 yilda ishlab chiqildi. Ammo, amaliyotga 1993 yildan boshlab joriy etilgan.

Asosiy kapital quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- ustav kapitalining to'langan qismi (oddiy aktsiyalar qiymati);
- muddatsiz nekumulyativ imtiyozli aktsiyalar;
- emission daromad;
- sof foyda hisobidan shakllantirilgan zahira summalari;
- o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi.

Xalqaro Bazel andozapari bo'yicha banklarning qo'shimcha kapitali tarkibiga quyidagi asosiy elementlar kiritiladi:

1.Kreditlardan kuriladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zahiraning riekka tortilgan aktivlar miqdorining 1,25 foizidan oshib ketmaydigan qismi;

2.Qayta baholash zahirasi. Bunda bankka tegishli bino va inshootlar hamda erning qiymatini qayta baholash natijasida yuzaga keladigan zahira miqdori tushuniladi;

3.Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari;

Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari Garbiy evropa davlatlarining bank amaliyotida uzoq muddatli (8-10 yil) obligatsiyalar yoki imtiyozli aktsiyalar shaklida mavjuddir. Ularni subordinatsiyalashgan majburiyatlar deyilishining sababi shundaki, bank bankrot bo'lganda mazkur qimmatli qog'ozlarning egalari

o`z ulushlarini bankning boshqa qimmatli qog`ozlariga ega bo`lgan sub'ektlardan keyin oladi.

4. Konsolidatsiyalashgan sho`ba korxonalarini tashkil etish maqsadiga yo`naltirilgan kuyilmapar.

Bazel andozalari bo`yicha konsolidatsiyalashgan sho`ba korxonalari deganda bank koshida tashkil etilgan, mustaqil bapansga ega bo`lmagan kredit muassasalari (lizing, faktoring, trust, forfeiting kompaniyalari) kuzda tutiladi.

Tijorat banklari kapitali tarkibida barqaror manbalar sifatida ularning ustav kapitali va o`tgan yillarning taqsimlanmagan foydasini keltirish mumkin. Chunki ustav kapitali tijorat banklarining faoliyatini dastlabki davridayok shakllantirilib bank faoliyati tugatilgunga kadar hisobda turadi. Shu bilan birga, ushbu mablag` real moliyavii mablag`lar hisobidan shakllantiriladi. Xalqaro bank amaliyotida ustav kapitali asosiy va barqaror element hisoblanadi. Respublikamiz banklarida ham ustav kapitaliga nisbatan ana shunday sifat beriladi.

Tijorat banklari o`tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi ham real qiymatga ega bo`lgan mablag`lar hisobidan shakllantirilib bank aktsiyadorlari yigilishining qarori asosida ma'lum maqsadlarga yo`naltirilishi mumkin.

Tijorat banklarining kapitalini boshqarishning ikkinchi asosiy jixati sifatida ularning jami kapitalining yetarliligini ta'minlash masalasi hisoblanadi. Jami kapitalning yetarliligini ta'minlash tijorat banklarining faoliyatini normal ravishda harakat qilishga imkon berish bilan birga, ularning moliyavii mustahkamligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Banklarning asosiy kapitalining yetarliligini ta'minlash orkali bank kapitalini boshqarish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Uning asosiy ko`rsatkichlaridan biri bank faoliyatining samaradorlik darajasini past yoki yuqori ekanligi bilan izoxlanadi. Chunki tijorat banklari ma'lum darajadagi risk asosida bank kapitalidan kredit resurslari sifatida foydapanishi ham mumkin. Kredit resursi sifatida berilgan kapital qarzdorlar tomonidan samarapi foydapanishi natijasida daromad keltirsa bankning moliyavii jixatdan bakquvvat bo`lishiga xizmat qiladi. Agar ushbu holatning aksi bo`lsa, tijorat banklari moliyavii jixatdan ikki tomonlama zarar

ko`radilar. Ya'ni, birinchidan, berilgan kreditlar o`z vaqtida qaytarilmaydi va ushbu kreditdan mo`ljaldagi foizli daromadlarni ololmaydi. Ikkinchidan, kredit resurslarining belgilangan muddatda kaytmasligi bankni moliyavii jixatdan zaif qilib kuyadi. Demak, ushbu jarayonda kredit riskini oqilona baholash orkali bank kapitalini boshqarishdagi muhim masalalardan biri hisoblandi.

Tijorat banklari kapitalini boshqarishning ob'ektiv asoslaridan kelib chikkan holda, unga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni quyidagi rasmda keltirilgan tartibda guruxlab tahlil qilish maqsadga muvofik.

a) Tijorat banklarining oddiy va imtiyozli aktsiyalarining bozor bahosini o`zgarish omili.

Tijorat banklarining oddiy va imtiyozli aktsiyalarining bozor bahosining o`sishi ularni sotish jarayonini tezlashtiradi va sotilish koeffitsientining yuqori darajasiga erishish imkoniyatini beradi. Buning natijasida ustav kapitalining xaqiqatda to`langan qismi oshadi. Aksincha, bankning oddiy va imtiyozli aktsiyalarining bozor bahosini pasayishi ularni sotishdan olinadigan tushumlari miqdoriga va emissiyaviy daromadlari hajmiga salbiy ta'sir qiladi.

Shunisi xarakterliki, ko`pchilik rivojlanayotgan davlatlarda moliya bozorining rivojlanmaganligi oqibatida oddiy va imtiyozli aktsiyalarning bozor bahosini aniqlash imkoniyati mavjud emas. Buning ustiga, banklarning moliyavii barqarorligi va to`lovga kobilligi to`g`risida ishonchli ma'lumotlarning mavjud emasligi investorlarda qimmatli qog`ozlarni sotib olishga bo`lgan ishonchni pasayishiga sabab bo`ladi.

Rivojlanayotgan davlatlarda inflyatsiya darajasining yuqori ekanligi bank aktsiyalarining bozor bahosiga salbiy ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Inflyatsiyaning yuqori darajasi investorlar tomonidan bank aktsiyalarini sotib olishga qilingan kuyilmalarning va ulardan olinadigan daromadlarning real qiymatini pasayishiga olib keladi.

Tijorat banklari moliyavii ahvolining nobarqarorligi bankning operatsion foydasi va sof foydasining miqdoriga salbiy ta'sir ko`rsatadi. Operatsion foydaning

yetarli darajada shakllanmasligi imtiyozli aktsiyalarga to'lanadigan foizlarni o'z vaqtida va to'liq to'lanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

## **1.2 Zamonaviy bank xizmatlarining bank tizimidagi roli**

Bozor munosabatlari sharoitida banklarda bozor talablariga mos keluvchi xizmat turlarini tatbiq qilish, mijozlarning talab va takliflarini hisobga olish, ularga xizmat ko'rsatishning yangi usullarini joriy etish, yangi kredit vositalarini qo'llash, turli kredit institutlarini tashkil etish bilan bog'liq jarayonlarini yuzaga keltirdi.

O'z navbatida, bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning tutgan o'rni hamda ahamiyatining muhimligi, bank tizimini takomillashib borishi ushbu sohada yuqori malakali xodimlarni tayyorlashni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasida bank tashkil etish va banklar faoliyatini yo'lga qo'yish masalalari O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'qrisida»gi qonuni bilan tartibga solinadi.

«Bank tizimi» tushunchasi birinchi navbatda «Bank va tizim» kabi tashkiliy tuzilmani tashkil qiluvchi tushunchalarni aniqlashni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan bank - tijorat muassasasi bo'lib, jismoniy va xuquqiy shaxslarning bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qilish va ularni o'z nomidan, to'lovlilik, muddatlilik, qaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi.

Ba'zi adabiyotlarda «bank - bu korxon»a, deb ham izox beriladi. Ma'lumki, bank yaxlit olingan korxon»a sifatida ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirmaydi. Tijorat banklarining faoliyatini korxon»a faoliyatiga shu jixatdan o'xshatish mumkinki, tijorat banklari ham korxon»alar singari uz faoliyatini, o'z daromadini ko'paytirishga va shu asosda birinchidan, o'z asoschilari - aksiyadorlarining manfaatlarini, ikkinchidan, o'z mijozlarining manfaatlarini ximoya qilishni ta'minlashdan iborat.

Tijorat banklari bank tiziminining muxim bo'g'ini bo'lib, kredit resurslarning asosiy qismi shu banklarda yig'iladi va bu banklar xuquqiy, jismoniy shaxslarga o'z xizmatlarini ko'rsatadi.

Banklar - tovar-pul xo'jaligining ajralmas atributidir. Tarixan bular yonma-yon rivojlanib keldilar. Shuning uchun qiymatning pul shaklining muomalasining boshlanishi bank ishining boshlanishi deb hisoblash, hamda bank faoliyatining rivojlanishidagi etukligi doimo iqtisodiyotdagi tovar-pul aloqalarining rivojlanish darajasiga mos kelgan.

Banklar-moliyaviy bozorning tashkiliy tuzilishining bir qismi bo'lgan kredit tashkiloti bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bosh turgan pul mablag'larini jamgarish, yig'ish, jamlangan (akkumultsiya qilingan) mablag'larni o'z nomidan qaytarib berishlik, muddatlik asosida berish hamda mijozlarning topshirigiga ko'ra, to'lovlarni amalga oshirish vazifalarini amalga oshiradilar.

Ishlab chiqarish va muomalaning o'sishi munosabatda barcha mamlakatlarda banklarni ahamiyati ko'tarildi. Yuqorida ko'rib o'tilgan funksiyalarga yangilar, masalan, foiz keltiradigan kapitalni boshqarish funksiyalari qo'shildi.

Shunday qilib banklar-bu kreditning rivojlanishi natijasidir. Shuning uchun kredit bankga nisbatan asos bo'lib hisoblanadi.

Markaziy banklarning tarixan paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishiga e'tibor qiladigan bo'lsak, ularning tijorat banklaridan ancha kech paydo bo'lganligiga amin bo'lamiz. Markaziy banklarning yuzaga kelishiga asosiy sabab bank tizimining butunlay ishdan chiqishi darajasiga etishi, ya'ni xar bir bank o'zicha va o'zi belgilagan miqdorda muomalaga turli xildagi, hamda turli nominaldagi pul belgilari chiqarishi bilan yuzaga kelgan. Bu o'z navbatida bevosita muomalada tovar va moddiy qimmatliklarga nisbatan pulning bir necha barobar ko'payishiga va oqibatda nafaqat bank tizimining, balki butun iqtisodiyotning izdan chiqishiga olib kelgan. Bu esa emission banklarning markazlashtirilishiga olib kelgan. Natijada, emissiya qilish xuquqini qo'lga kiritgan bankning boshqa banklarga nisbatan barqaror va mustaxkam bo'lishi ma'lum bo'ldi. Bu orqali bank tizimida mavjud bo'lishi kerak bo'lgan sof raqobat yo'qotilib, ko'zlangan natijaga erishilmadi. Shundan so'ng, iqtisodchi olimlar tijorat banklari faoliyatini boshqaradigan va faoliyati jixatdan ulardan farq qiladigan bankni vujudga keltirish zarurligini anglab etdilar.

Bank - bu pul mablag'larini jamlash va ularni o'z nomidan qaytarib berishlik, to'lovlilik va muddatlilik asosida tarqatish uchun yaratilgan tashkilotdir.

Banklarning asosiy maqsadi pul mablag'larini kreditorlardan qarz oluvchilarga va sotuvchilardan xaridorlarga o'tkazishda vositachilik qilishdir. Banklar bilan bir qatorda, bozorlarda pul mablag'larni o'tkazishni boshqa moliyaviy va kredit - moliyaviy tashkilotlar: investitsion fondlar, sug'urta kompaniyalari, brokerlar, diller firmalari va xokozolar bajarilishlari mumkin. Biroq banklar, moliyaviy bozor subyekti sifatida boshqa subyektlardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadi.:

Birinchidan, banklar uchun qarz majburiyatlarining ikki tomonlama almashtirish xarakterlidir (xosdir): ular o'zlarining majburiyatlarini (depozit) shakllantiradilar va jalb qilingan mablag'larni qarz majburiyatlariga, qimmatli qog'ozlarga (boshqalarning chiqargan qog'ozlariga) joylashtiradilar;

Ikkinchidan banklar o'zlariga yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi qat'iy belgilangan summa bo'yicha shartsiz majburiyatlarni oladilar.

Ammo shuni nazarda tutish zarurki, bugungi kunda aniq olingan bank tashkiloti amaliyotida barcha sanab o'tilgan bank operatsiyalari amalga oshirilmaydi yoki deyarli mavjud emas.

Yuqorida ko'rib o'tilganlarga asosan , aytish mumkinki banklarni normal faoliyat ko'rsatishi va yashashi uchun aniq asosiy faoliyat «to'plami» mavjuddir.

Bunday operatsiyalarga quyidagilar kiradi:

- Depozitlarni qabul qilish;
- Pul to'lovlari va hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- Kreditlarni berish.

Bank moxiyatini to'liqroq uning funksiyalarini ochib beradi.

Tijorat banklarining iqtisodiy roli uning faoliyat doirasining keng bo'lishiga olib keladi.

Tijorat banklari quyidagilarni bajaradi:

-vaqtincha bush turgan pul mablag'larni yig'ish va ularni kapitalga aylantirish;


- korxonalar, tashkilotlar va axolini kreditlash;
- muomalaga kredit pullar (muomalaning kredit vositalari) ni chiqarish;
- xalq xo'jaligida hisob-kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish;
- moliya - valyuta bozorida faoliyat ko'rsatish;
- iqtisodiy-moliyaviy axborotlar berish va maslaxat xizmatlarini ko'rsatish.

Bankning birlamchi va asosiy funksiyasi bo'lib, vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini akkumlyatsiya qilish, yig'ish funksiyasi hisoblanadi. Akkumlyatsiyasining o'ziga xos tamoyillarni hisobga olish zarurdir. Banklar bo'sh pul mablag'larini yig'ish va ularni kapitalga aylantirish funksiyasini bajara turib mavjud bo'sh pul daromadlari va jamg'armalarni yig'adi. Chunki banklar nafaqat o'zlarining, balki begonalarning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini yig'adilar. Jamlangan pul mablag'lari banklarning o'zlarining iste'moliga emas, balki begonalarning (boshqa) is'temol uchun foydalaniladi. Jamg'aruvchi (bo'sh pul mablag'i egasi) o'z mablag'larini bankka ishonib topshirgani uchun va bank bu mablag'lardan foydalangani uchun ma'lum foiz hisobida daromad oladilar. Jamlanadigan va qayta taqsimlanadigan mablag'larining mulk xuquqi birlamchi kreditor (bank mijozi) da saqlanib qoladi. Bo'sh pul mablag'lari hisobidan ssuda kapitali fondi vujudga keladi va bu fond xalq xo'jaligi tarmoqlarini kreditlash uchun ishlatiladi

Banklarning ikkinchi funksiyasi- pul muomalasini tartibga solish funksiyasi. Banklar turli xo'jalik sub'ektlar orqali o'tadigan to'lov muomalasi (oboroti) ning markazi sifatida chiqadilar. hisob-kitoblar tizimi orqali banklar o'zlarining mijozlariga ayirboshlashni amalga oshirishni, pul mablag'lari va kapitalni aylanishi uchun sharoit yaratib beradilar. Banklar orqali alohida olingan subyektlar va bir butun mamalakat iqtisodiyotidagi oborot(aylanishi) o'tadi. Muomalaga kredit pullarni chiqarish funksiyasi tijorat banklarni boshqa moliya institutlaridan ajratib turadi. Tijorat banklari depozit-kredit emissiya qilganida, ssudalar berganida pul massasi oshadi va ssuda bankka qaytarilganda muomalada pul massasi kamayadi.

Tijorat banklari kredit pullarni yaratishning emitenti hisoblanadi. Tijorat bank tomonidan mijozga berilgan kredit uning hisob raqamiga o'tkaziladi va bankning

qarz majburiyati ortadi. Mijoz bu mablag'ning ma'lum qismini naqd pul shaklida hisob raqamidan olishi mumkin.



### 1.2.1-chizma. Zamonaviy tijorat banklarining funksiyalari<sup>2</sup>.

Bu xolda muomalada pul massasining miqdori oshadi. Shuning uchun ham tijorat banklar faoliyati ustidan Markaziy bank nazorat olib boradi.

Tijorat banklarning muxim funksiyalaridan biri-hisob-kitoblarni olib borishdir. Hisob-kitoblarni olib borishda bank mijozlar o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qiladi. Banklarning bu funksiyasi- vositachilik funksiyasi bo'lib, bunga asosan banklarning to'lovlaridagi vositachiligi faoliyati tushiniladi. Banklar orqali korxonalar, tashkilot va aholining to'lovlari o'tkaziladi. Iqtisodiy xayot markazida joylashgan banklar bu funksiyasi orqali bu xo'jalik talablaridan kelib chiqqan

<sup>2</sup> Manba: muallif tomonidan tuzilgan

xoldi kapitalni muddati, xajmi va yo'nalishini o'zgartirishga imkon oladi. Banklarning bu funksiyasi ko'proq mablag'larni o'tkazish funksiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tijorat banklari yana qimmatli qog'ozlar chiqarish va joylashtirish bilan shug'ullanishi mumkin.

Tijorat banklari iqtisodiy ahvolni nazorat qila borib, mijozlarga xar-xil axborotlar, maslahatlar berishi mumkin. Juda katta o'z sarmoyasiga ega bo'lgan tijorat banklari yirik investor sifatida chiqishlari, ya'ni umuman xalq xo'jaligi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatishlari ehtimol tutilgan tarkibiy qayta qurish ishlariga aralashishlari va xatto iqtisodiyot sho'balarining istiqbollarini belgilashlari mumkin.

Mulknii boshqarish va sarmoya hosil qilishning ancha katta miqyoslardagi aksiyadorlik-xuquqiy shakli maqomini tijorat banklari olar ekan, moliya bozorlariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi ko'plab xoldinglar sho'ba firmalar va korxonalar tashkil etish, shuningdek qatnashuvchining turli shakllarini rivojlantirish asosida o'z faoliyatini ancha diversifikatsiyalashi mumkin bo'ladi.

Shunday qilib, bank, bu hukumat, korxonalar, axoliga va boshqa banklarga pullik va qimmatli qog'ozlar bilan turli operatsiyalarni amalga oshiruvchi hamda moliyaviy xizmatlarni ko'rsatuvchi moliyaviy tashkilotdir.

Banklar ma'lum tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatadi. Banklarni birinchi va asosiy tamoyili bu ularni xaqiqiy (real) mavjud bo'lgan mablag'lar hajmida faoliyat ko'rsatishidir. Bu tamoyil banklarni o'z mablag'larini nafaqat miqdori beriladigan miqdori bo'yicha kredit hajmiga to'g'ri kelishini, balki bank aktivlarini xususiyatlari bilan jalb qilinadigan mablag'lar xususiyatlarini to'g'ri kelishini ta'minlashlari zarurdir. Eng avvalo bu ularning muddatlari bo'yicha mos kelishidir. Biroq tijorat bankida ko'p foyda olish cheklangan. Birinchidan katta marja ketidan quvish mijozlardan mahrum bo'lib qolishiga olib kelishi mumkin, chunki ular haddan tashqari katta qo'yilgan stavkali kreditdan voz kechishlari mumkin, ikkinchidan banklararo raqobat sharoitida boshqa tijorat banklari orasidan bir qadar samaraliroq ishlar uchun ancha arzon kreditlar taklif etilishi mumkin.

Daromadlilik (foйда ko'rish) qoidasi sifatida shuni anglatadiki busiz bank mavjud bo'la olmaydi. Bank tijoratining bu qoidasi asosan "Arzonroq sotib olish, qimmatroq sotish" formulasi orqali amalga oshadi. Biroq bu qoidaga madaniy yondashmoq lozim. U qonunchilikka tayanish, unga aslo zid kelmasligi, binobarin, bunda shunday shart-sharoit yaratilishi kerakki xar bir bank o'zining tijorat ishlarini amalga oshirayotganda bank xizmati bozori haqida bab-baravar axborot olish.

Banklarning tayanadigan ikkinchi zaruriy tamoyili, bu ularning to'liq iqtisodiy mustaqilligidir. Banklar o'z faoliyat natijalari uchun o'zlari to'liq mustaqil va javobgardirlar. Bu o'z navbatida banklarni o'z mablag'larini jalb qilgan pul mablag'larini mustaqil boshqarish, mijozlar va jamg'armachilarni erkin tanlash, daromadlarni boshqarish, soliqlarni to'lash kabi xuquqlarini beradi. Tijorat nukta nazaridan qaraganda bekor yotgan resurslar bo'lmasligi kerak. Boshqacha aytganda bankning hamma pullari, barcha resurslari imkon kadam ishlashlari lozim. Biroq xaqiqiy ahvol shundan iborat bo'ladiki, mablag'larni bir qismi zaxiraga qo'yiladi, u muomalada kamroq qatnashadi yoki umuman ishtirok etmaydi, yana bir qismi esa iqtisodiyotni kreditlash uchun mo'ljallanadi. O'z-o'zidan ravshanki bank biznesi nukta nazaridan qaraganda, bu g'ayritabiiy, shuning uchun ham birlamchi va ikkilamchi zaxiralarga nisbatan kreditlar salmog'i kanchalik katta bo'lsa, foyda ham shunchalik ko'p kelishini bilib qo'ygan ma'qul.

Uchinchi asosiy tamoyil, bu tijorat banklarni o'z mijozlari bilan munosabatlari oddiy bozor munosabatlariga mos quriladi. (o'rnatiladi). Bank kreditlarini berish jarayonida bozor munosabatlariga tayangan xolda ularni foydalilik, risk va likvidlilik nukta naziridan kelib chiqadi. Bank faoliyatining muxim qoidalaridan yana biri shuki, bank iqtisodiy korxonasi sifatida o'z mablag'i, o'z foydasi ustidan tavakkal ish tutishi mumkin, ammo zinxor mijoz mablag'i yuzasidan emas. Muvaffaqiyatsiz bank tijoratidan bankning o'zi jabr tortishi mumkin. Lekin mijoz xech kachon jabrlanmasligi kerak, chunki kredit muassasi uning uchun yaratilgan.

### **1.3.O`zbekistonda tijorat banklarida zamonaviy xizmatlarning bank kapitallashuv darajasini oshirishdagi ro`li**

2012-2014 yillarda O`zbekiston Respublikasi bank sektorini yanada islox qilish va rivojlantirish dasturida banklarning ustav kapitalining minimal miqdorini Bazel tamoyillariga moslashtirish va boskichma-boskich oshira borish kuzda tutilgan edi. Respublikamiz tijorat banklari kapitalining o`shish dinamikasiga e'tibor beradigan bo`lsak 2010 yil 791 mlrd.so`mni, 2011 yilda 824 mlrd.so`mni tashkil etgan. 2012 yil 1 yanvar holatiga nisbatan 107 mlrd. so`mga oshib 2013 yilning 1 yanvarda 1121 mlrd. so`mni tashkil etgan. 2013 yilda esa 1653 mlrd.so`mni tashkil etgan. Bu 2008 yilga nisbatan 862 mlrd. so`mga ko`paygan. Ta'kidlash kerakki, banklarning kapitallashuvida aholining va nodavlat tashkilotlarining, ya'ni xususiy firma va korxonalarining ulushi ortib bormoqda. 2012 yilda Tadbirkorbank, Savdogarbank, Trastbank, G`alla bank, Privat bank, Ipak yo`pi banki ustav kapitalidagi davlatga tegishli aktsiya paketa to`liq sotildi.

Turli mamlakatlarda bank faoliyati ustidan nazoratni turli organlar olib boradi. Masalan: Yaponiya va Germaniyada bank faoliyati ustidan davlat nazoratini Moliya vazirligi, AQSh, FRG, Moliya vazirligining pul muomalasini nazorat bo`limi va depozitlarni sug`urtalash korporatsiyasi. AQSh da 1978 yildan boshlab CAMEL tizimi asosida bank faoliyatining barqarorligini baholovchi ko`rsatkichlarni tahlil qilish asosida banklarga reyting baho beriladi.

Bank kapitali va uning ulchami bank resurslari tarkibida katta ahamiyatga ega. Bank kapitalining bank resurslarida tutgan o`rnini ochish uchun uning quyidagi funktsiyalarini kurib utamiz:

1. Bank kapitali boshqaruvchi tomonidan yuzaga kelgan muammolar hal qilinguncha joriy harajatlarni koplaydi.
2. Bank kapitali boshqa yetarlicha depozitlar jalb qilinguncha uni tuzish, tashkiliy ishlarni yo`lga kuyish va faoliyat ko`rsatish uchun zaruriy mablag`lar bilan ta'minlaydi.

3. Bank kapitali mijozlarnig bankka bo`lgan ishonchini oshiradi, qo`llab-quvvatlaydi va kreditorlarni bankning moliyavii kuchiga ishonishga undaydi. Bank kapitali yetarli darajada katta bo`lishi kerak va xattoki iqtisod inqirozga yuz tutgan vaqtda ham u mijozlarning kreditga bo`lgan talabini qondirishi kerak.

4. Bank kapitali bankning tashkiliy o`shishini va yangi xizmat turlari ishlab chiqishni ta'minlashi kerak.

Bank kapitali bankning uzoq muddatdagi kelajagini, xayotiyiligini va o`shishini maromga keltirib turuvchi regulator hisoblanadi. Juda tez kengayotgan bank, ya'ni kredit va depozitlarning summasi shiddat bilan o`sayotgan bank, bozordan shunga javob signallari olishni boshlaydi. Bu aks ta'sir bank tomonidan kengayish sur'atlarini sekinlashtirish yoki qo`shimcha kapital jalb qilishi kerakligini bildiradi.

Bank kapitali bank faoliyatini bir tekis ta'minlab turishi uchun doimo to`ldirib turishi kerak va nafaqat aktsiyalar hisobidan, balki boshqa manbalar hisobidan ham. O`z kapitalining tabiatini bilish uchun esa uning shakllanish manbalarini ham yaxshi bilish katta ahamiyatga ega deb o`ylayman. undan tashqari bankning o`z kapitali - bu bank tomonidan aktiv operatsiyalarning oshirishning asosidir. Shu sababli har bir bank uchun uni oshirish yo`larini topish birinchi darajali masalalardan biridir. Manba sifatida o`tgan yildan qolgan taqsimlanmagan foyda, bank zahiralar, qo`shimcha qimmatbaho qog`ozlarni joylashtirish yoki yangi paychilarni jalb qilishni ko`rsatib o`tish mumkin.

Xalqaro Bazel qo`mitasining andazalariga e'tiboran bankning jami kapitali asosiy va qo`shimcha kapitalga ajratiladi.

Asosiy kapital tarkibiga quyidagi elementlar kiritiladi:

1. Ustav kapitalining to`langan qismi (oddiy aktsiyalar qiymati);
2. Muddatsiz nekumulyativ imtiyozli aktsiyalar;
3. Emission daromad;
4. Sof foyda hisobidan shakllantirilgan zahira summasi;

5. O'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi; Qo'shimcha kapital quyidagi elementlardan tashkil topadi:

1. Kreditlardan kurilgan zaralarni qoplashga mo'ljallangan zahiraning riskka tortilgan aktivlar miqdorining 1,25 foizidan oshib ketmaydigan qismi;

2. Qayta baholash zahirasi. Bunda bankka tegishli bino va inshootlar hamda ernaing qiymatini qayta baholash natijasida yuzaga keladigan zahira miqdori tushuniladi;

3. Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari;

4. Kontsoloditsiyalashgan sho'ba korxonalarini tashkil etish maqsadida yo'naltirilgan mablag'lar.

Bank kapitalini jalb qilish bankning yuritayotgan siyosatiga ko'ra ichki va tashqi manbalardan shakllantirilishi mumkin.

Ichki imkoniyatlar hisobidan kapitalni jalb qilish. Bank kapitalining asosiy manbai bo'lib har doim aksionerlarga to'lanmagan va bankda taqsimlanmagan holda qoldirilgan foyda xizmat qilgan. Kapitalni jalb qilishning afzal tomoni shundan iboratki, bank kapitalni shakllantirish jarayonida ochiq bozordan mustaqil bo'ladi va shu bilan birga qarzlarni joylashtirish bo'yicha harajatlardan holi bo'ladi. Ichki imkoniyatlardan foydalanib kapitalni oshirish nafaqat mavjud aksionerlarning jamiyat ustidan bo'lgan nazoratini susaytirmaydi, balki aksiyalarga hisoblangan dividendlar ham kamaymaydi. Masalan, bank kapitalni ko'paytirish yo'li sifatida aktsiya chiqarishni tanladi, aksiyalarning bir qismi yangi aksionerlarga sotildi va bu esa mazkur aksionerlar keyinchalik jamiyatning kelajakdagi ma'lum foyda qismiga va uning siyosatiga aralashishga, hal qilishda qatnashishga xuquqni qo'lga kiritishini anglatadi.

Qo'shimcha kapitalga bo'lgan extiyojni qondirishda foydaning o'sishiga tayanishga e'tibor joriy foydaning qaysi qismi taqsimlanmagan holda qolishi va qaysi qismi aksionerlarga dividend ko'rinishida tarqatilishining echimiga qaratilishini bildiradi, ya'ni dividendlar ulushi aniqlanadigan, ushlab qolinga foyda qismini aniqlanishi zarur. Ushlangan foyda kattaligi bankni boshqarishda katta ahamiyatga ega. Juda past darajada o'rnatilgan kattalik (ya'ni dividendlarning

ulushi katta bo`lganda) u bank kapitali ichki manbalarining sekin o`shishiga olib keladi. Shu bilan birga u bankning bankrotlik ehtimolini oshiradi va daromad keltiruvchi bank aktivlarining o`shishini chegaralaydi. Ushlangan foydaning kamligi esa (ya'ni dividendlarning ulushi kichik bo`lganda) aktsionerlarga to`lanadigan dividendlarning kamayib ketishiga olib keladi. Bu esa bank aktsiyalarining qiymati kamayib ketishiga olib kelishi mumkin. Bank aktsiyalarining yuqori bozor qiymatini ta'minlovchi siyosat bankning optimal dividend siyosati hisoblanadi. Agar bank aktsiyalarining daromadlilik xatarlilik darajasi teng bo`lgan boshqa investitsiyalardan kelgan daromadga teng bo`lsa, bankka yangi aktsionerlar jalb qilinishi va eskilari esa kelajakda ham bank aktsiyalarining ushlovchisi bo`lib qolishi mumkin. Bank uchun katta ahamiyatga molik bo`lgan masala - bu bank tomonidan stabil dividend siyosatini olib borilishidir. Agar bank dividendlari hech bo`lmasa eski darajada saqlansa ham, u investorlarning aktsiyalarga ishonchli daromad manbai sifatida qarashga va aktsiyalarni sotib olishga undovchi vosita bo`lib xizmat qiladi. Ko`pgina tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, bank aktsiyalari bo`yicha dividendlarning kamayishi xaqida e'lon qilinishi ularning bozor bahosi tushib ketishiga sabab bo`ladi. Bu nafaqat mavjud aktsionerlarning xayratlanishiga sabab bo`ladi, balki bo`lishi mumkin bo`lgan aktsionerlarni o`z fikridan qaytishiga ham olib kelishi mumkin va oxir oqibatda qo`shimcha kapital to`plashga halaqit berishi mumkin.

Kapital jalb qilishning tashqi manbalari. Tijorat banklari faoliyati davomida kapitalni jalb qilishning tashqi manbalaridan ham foydalanishga zaruriyat tug`iladi. Kapitalning tashqi manbalariga quyidagilar kiradi:

1. Oddiy aktsiyalarni sotish;
2. Imtiyozli aktsiyalarni sotish;
3. O`zaro muddatli qarz majburiyatlarini chiqarish;
4. Aktivlarni sotish;
5. Asosiy fondlarning ayrim turlarini ijaraga olish, masalan, bankka tegishli binolarni.

6. Bank qaysi bir yo`lni tanlashi ko`pgina omillar ta'siri ostida shakllanadi, shulardan biri bu aksionerlarning daromadiga ta'sir qilishidir. Undan tashqari bu masalani hal qilishda bankning xatarga beriluvchanligi, bank nazoratiga ta'siri, aktiv va majburiyatlar bozorining ahvoli ham ma'lum miqdorda rol o`ynaydi.

Oddiy aktsiyalarning sotilishi. Umuman olganda oddiy aktsiyalarning emissiyasi kapitalni jalb qilishning tashqi manbalari ichida oddiy aktsiyalarni joylashtirish harajatlarning kattaligi va aksionerlar daromadlarining qarz majburiyatlari egalariga nisbatan tutgan o`rni bilan bog`liq xatarlari bilan ajralib turadi. Chiqarilgan aktsiyalar bank ishlatishi mumkin bo`lgan qarzlarni ulushini kamaytiradi va shu bilan birga bank tomonidan kelgusida qo`shimcha mablag` jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Imtiyozli aktsiyalarning sotilishi. Imtiyozli aktsiyalarning sotilishi oddiy aktsiyalarning sotilishiga o`xshab harajatni ko`p talab qiluvchi manbalardan hisoblanadi. Imtiyozli aktsiyalar egalari oddiy aktsiya egalariga nisbatan bank foydasiga birlamchi xuquqqa ega bo`lganliklari sababli imtiyozli aktsiyalar chiqarilgandan so`ng oddiy aktsiyalar bo`yicha dividendlar kamayib ketishini kutish mumkin. Imtiyozli aktsiyalar ham oddiy aktsiyalar kabi bankning kelajakda qarz olish imkoniyatini oshiradi.

Subordinatsiyalashgan qarzlarni chiqarish. Subordinatsiyalashgan qarz qog`ozlarining bank uchun afzalligi shundaki, ular qarz majburiyatlari ulushining va bitta aktsiyaga to`g`ri keladigan foydaning oshishiga olib keladi, qachonki mazkur qarzlardan foydalanish oqibatida keladigan daromad unga to`lanadigan harajatlardan yuqori bo`lsa. Undan tashqari mazkur qarz majburiyatlaridan kapital to`ldirish, oshirish manbai sifatida qo`llaniladigan davlatlarda qarz bo`yicha foiz to`lovlari soliq to`lanadigan bazani kamaytiradi. Yana bir narsani ko`rsatib o`tish lozimki, bu qarz turi ham boshqa qarzlarni kabi bankrotlik xatarini oshiradi.

Aktivlarni sotish va ko`chmas mulk ijarasi. O`z faoliyatini bir maromda ushlab turishda va kapitalni boshqarishda banklar o`z asosiy vositalarini, masalan, bank joylashgan binoni sotadi va uni yangi bino egasidan ijaraga oladi. Odatda bu operatsiya bankka katta hajmdagi mablag` olib kelishiga va o`z kapitalining

sezilarli oshishiga, bankning kapital pozitsiyasi kuchayishiga olib keladi. Bu kabi operatsiyalar inflyatsiya va iqtisodiy o'sish sur'ati bank balansida aks ettirilgan mol-mulkning joriy qiymatining uning boshlang'ich qiymatiga nisbatan o'zgarishidan yuqoriroq bo'lgan davrlarda qo'llanilganda katta samara bergan.

Agar amaldagi qonun va qoidalar bo'yicha bank mulkining eskirish me'yorlari qanchalik katta bo'lsa, bank uchun mazkur operatsiyani amalga oshirish uchun manfaatdorlik shunchalik katta bo'ladi. Rivojlangan davlatlarda ko'pgina tijorat banklari bank kapitalining bank aktivlariga bo'lgan nisbatini yaxshilash uchun aktivlarni sotish usulidan foydalanishmoqda. Bu usulga asosan bank tomonidan xatarlilik yuqori bo'lgan bank aktivlarining o'sishi sekinlashtiriladi, ya'ni sekin-asta ular xatarlilik darajasi past aktivlarga (davlat qimmatbaho qog'ozlari, davlat tomonidan taminlangan kreditlarga) almashtiriladi. Bu bilan kapital va xatarlilik darajasi bo'yicha tortilgan aktivlar o'rtasidagi nisbat bank uchun ijobiy tomonga siljiydi. Tijorat banklari kapitalini resurs manbai sifatidagi rolini asoslash maqsadida quyida keltirilayotgan jadvallarning ma'lumotlariga murojaat qilamiz.

**1.3.1-jadval**

**O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari umumiy kapitalining tarkibi va dinamikasi<sup>3</sup>**

*(foizda)*

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2010</b>	<b>2011</b>	<b>2012</b>	<b>2013</b>	<b>2014</b>	<b>2014 yilda 2010 yilga nisbatan, f.p.</b>
Ustav kapitali	14,1	13,5	17,6	24,9	26,2	12,1
Zahira kapitali	75,4	75,8	70,0	61,5	58,9	- 16,5
Joriy yil foydasi	5,8	5,1	4,8	8,2	9,2	3,4
Taqsimlanmagan foyda	4,7	5,5	7,2	5,3	5,6	0,9
Kapitalning boshqa elementlari	0,4	0,0	0,1	0,4	0,1	-0,3
Umumiy kapital - jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	X

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining yillik hisobot ma'lumotlari.

1.3.1-jadval ma'lumotlaridan ko`rinadiki, 2010-2014 yillar mobaynida O`zbekiston Respublikasi tijorat banklari umumiy kapitalining tarkibida zahira kapitali yuqori salmokni egallaydi. Bu esa, mamlakatimiz banklari umumiy kapitalining barqarorlik darajasining past ekanligidan dalolat beradi. Chunki zahira kapitalining 90 foizdan ortiq qismi devalvatsiya zahirasi summasiga to`g`ri keladi. Devalvatsiya zahirasi esa, tijorat banklari faoliyatini moliyalashtirishning barqaror manbai hisoblanmaydi. Shu sababli, Xalqaro Bazel qo`mitasining tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirish bo`yicha kabul qilingan me'yoriy talablariga muvofik, devalvatsiya zahirasi summasini tijorat banklari kapitalining tarkibida hisobga olish man etiladi.

1.3.1-jadval ma'lumotlaridan ko`rinadiki, 2014 yilda respublikamiz tijorat banklari kapitalining umumiy hajmida ustav kapitalining salmog`i 2010 yildagiga nisbatan sezilarli darajada oshdi. Buning sababi shundaki, respublikamizda investorlarning tijorat banklaridan dividend sifatida oladigan daromadlari soliqdan ozod qilingan. Bu esa, tijorat banklari aksiyalarining investitsion jozibadorligini keskin oshishiga sabab bo`ldi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 7 noyabrdagi PK-726-sonli "Bank tizimini yanada rivojlantirish va bush pul mablag`larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to`g`risida"gi qarorining kabul qilinishi respublikamiz banklarining kapitallashish darajasini oshirish yo`pidagi muhim kadam bo`ldi. Mazkur Qarorga muvofik, 2011 yilning 1 yanvaridan boshlab yangi tashkil etilayotgan banklar ustav kapitalining eng kam tijorat banklari uchun so`m ekvivalentida 5 mln.evro miqdorida, xususiy banklar uchun - so`m ekvivalentida 2,5 mln. evro miqdorida belgilandi.

Ushbu qarorda mamlakatimiz tijorat banklarining xozirga kadar samarali investitsiya markazlariga aylanmaganligi, korxonalarni modernizatsiya qilish va texnologik qayta jixozlashda o`z kapitali bilan sust qatnashayotganligi alohida ta'kidlandi.

Respublikamiz tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirishning muhim me'yoriy-xuquqiy asoslaridan yana biri O`zbekiston Respublikasi Prezidentining

2007 yil iyul oyidagi PK-670-sonli "Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hisoblanadi." Mazkur Qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining ustav kapitali miqdorini oshirish, ularning kapitaliga aholi, tadbirkorlik sub'ektlari va extimol tutilgan investorlar. shu jumladan, xorijiy investorlarning bush pul mablag'larini jalb qilish uchun aksiyalar chiqarish va ularni fond bozorida faol joylashtirish hisobiga banklarning kapitallashuv darajasini oshirishning dolzarb masala ekanligi e'tirof etildi. Bundan tashqari, tijorat banklarining o'z kapitali hisobidan yangi zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil qilish hamda mavjud korxonalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jixatdan qayta jixozlashdagi investitsiya jarayonlarida keng ishtirok etishi, shu asosda rakobatbardosh, eksportga yo'naltirilgan maxsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va aholi bandligini oshirishni ta'minlash vazifasi kuyildi.

Moliya vazirligi tomonidan 2014 yil yakunlari byuicha davlat budjeti hisobiga utkazilishi lozim bo'lgan Markaziy bank foydasining bir qismini quyidagi banklarning ustav kapitaliga yo'naltirish belgilab kuyildi:

- "Mikrokreditbank"ka - 44 milliard so'm, shu jumladan, 32 milliard so'm nizom jamg'armasini ko'paytirish va 12 milliard so'm kichik biznes sub'ektlarining investitsiya loyihalarini moliyalash maqsadida kredit liniyasi ochish uchun;

- "Agrobank"ka-28 milliard so'm hajmida, shu jumladan, 15 milliard so'm nizom jamg'armasini ko'paytirish va 13 milliard so'm meva-sabzavot va chorvachilik maxsulotlarini to'liq qayta ishlash bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida kredit liniyasini ochish uchun;

- "Ipotekabank"ka-25 milliard so'm, shu jumladan, 15 milliard so'm nizom jamg'armasini ko'paytirish va 10 milliard so'm ipoteka kreditlari hajmini oshirish maqsadida kredit liniyasi ochish uchun.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 670-sonli ushbu Qaroriga asosan tijorat banklarining aksiyalarini fond birjasida

birlamchi ochiq joylashtirishni muomalaga bush yangi chiqarilayotgan aktsiyalar hajmining 25 foizidan kam bo`lmagan miqdorda amalga oshirish, tijorat banklari aktsiyalari majburiy tarzda fond birjasi listingiga kiritish va birja kotirovkalarini muntazam ravishda matbuotda e`lon qilish tartibi joriy etildi.


O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 19 dekabrda PF-3831 - sonli "Tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirishni rag`batlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi farmoniga muvofiq, 2007 yilning 1 yanvaridan boshlab 2010 yilning 1 yanvarigacha yuridik shaxslarning tijorat banklari aktsiyalari bo`yicha dividend sifatida olingan daromadlari soliq solishdan ozod qilindi, foyda soligi va yagona soliq to`lovi bo`yicha soliqqa tortish bazasini birlamchi va qo`shimcha ravishda chiqarilgan tijorat banklari aktsiyalarini harid qilishga yo`naltiriladigan mablag`lar summasiga teng miqdorda kamaytiriladi. Mazkur badda nazarda tutilgan imtiyozlar tijorat banklarining 2007 yil 1 yanvardan boshlab sotib olingan aktsiyalariga, shuningdek 2009 yilning 31 dekabriga kadar to`lanadigan aktsiyalar bo`yicha dividendlarga nisbatan qo`llaniladi.

Tijorat banklarining faoliyatini kengaytirishdada ularning resurs bazasi muhim rol o`ynaydi. Mazkur yo`nalishda ham samarali chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2015 yilda jami 553,6 mlrd. so`mlik aktsiyalar investorlar o`rtasida joylashtirildi va ularning 319,6 mlrd. so`mlik qismi nodavlat sektori hissasiga to`g`ri keldi.

Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlariga asosan "O`zsanoatqurilishbank" tomonidan 157 mlrd. so`mlik, Xalq banki tomonidan 54 mlrd. so`mlik aktsiyalar chiqarilib, investorlar orasida joylashtirildi. Shu bilan birga, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining ustav kapitali – 35 mlrd. so`mga, "Agrobank"niki – 50 mlrd. so`mga, "Mikrokreditbank"niki – 25 mlrd. so`mga va "Qishloq qurilish bank"niki – 25 mlrd. so`mga oshirildi.

Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish bo`yicha amalga oshirilgan maqsadli chora-tadbirlar natijasida bank tizimining umumiy kapitali so`nggi 5 yil davomida 2,4 martaga o`sdi.

2015 yilning o'zida ushbu ko'rsatkich 23,3 foizga oshib, 2016 yil 1 yanvar holatiga 7,8 trln. so'mni tashkil etdi (1.3.1-rasm).



### 1.3.1-rasm. Tijorat banklarning jami kapitali dinamikasi, mlrd. so'mda<sup>4</sup>

Aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning banklardagi depozitlari hajmining o'sishini rag'batlantirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar, jumladan, doimiy ravishda jozibador omonat turlarini taklif qilish, uzoq muddatli bank depozit sertifikatlarini va obligatsiyalarini muomalaga chiqarish hamda bu borada joriy etilgan imtiyozlar va qulay shart-sharoitlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

2016 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan va joylashtirilgan depozit va jamg'arma sertifikatlari 703,4 mlrd. so'mni hamda obligatsiyalar 247,8 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Umuman olganda, amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida jalb qilingan depozitlarning umumiy hajmi 2016 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 35,6 trln. so'mni tashkil etib, 2015 yil boshiga nisbatan 28,0 foizga oshdi.

Yuqorida biz mamlakatimiz bank tizimini yanada barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida erishilgan bank tizimidagi o'zgarishlarni ko'rib chiqdik. Ma'lumotlardan ko'rishimiz

<sup>4</sup> Manba: [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)

mumkinki keyingi yillarda bank tizimida naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirish bo'yicha izchil ravishda chora tadbirlar amalga oshirilgan va yuqori natijalarga erishilgan. Shuningdek, tijorat banklarning kapitallashuv darajasini oshirish borasida amaliy ishlar qilingan va ularning kapitllashuv darajasini kerakli darajada oshirishga erishilgan.

Endi biz mamlakatimizning yirik tijorat banklari bo'lgan TIF Milliy banki, Sanoatkurilishbanki, Agrobank, Asakabank va Fallabankning umumiy kapitali tarkibi va dinamikasini tahlil qilamiz.

### 1.3.2-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki umumiy kapitalining tarkibi va dinamikasi<sup>5</sup>

(foizda)

Umumiy kapitalning tarkibi	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2014 yilda 2009 yilga nisbatan o'zgarishi, f.p.
Ustav kapitali	5,1	5,4	4,8	4,5	4,2	3,8	-1,3
Zahira kapitali	88,5	88,6	89,9	87,4	83,9	83,6	-4,9
Joriy yil foydasi	1,9	3,7	1,8	1,9	3,6	3,9	3,0
Taqsimlanmagan foyda	4,4	2,3	3,5	6,1	8,3	8,7	4,3
Kapitalning boshqa elementlari	2,0	0,1	0,0	0,0	0,1	0,0	-2,0
Umumiy kapital-jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	x
* ma'lumotlar har bir moliyaviy yilning 31 dekabr holatiga olingan.							

1.3.2-jadval ma'lumotlaridan ko`rinadiki, TIF Milliy bankining umumiy kapitali tarkibida 2009-2014 yillar mobaynida zahira kapitalining salmog`i yuqori darajada saqlanib qolgan. Buning sababi shundaki, zahira kapitalining asosiy qismi ushbu bankda devalvatsiya zahirasi xissasiga to`g`ri keladi. Masalan, 2014

<sup>5</sup> TIF Milliy bankining balans ma'lumotlari.

yilda TIF Milliy banki zahira kapitalining hajmida devalvatsiya zahirasi salmog`i 98,2 foizni tashkil qildi. Devalvatsiya zahirasi salmog`i ko`rsatkichining yuqoriligi esa, so`mning AQSh dollariga nisbatan devalvatsiya darajasining tahlil qilingan davrda yuqori bo`lganligi bilan izoxlanadi. Xususan, 2014 yilda so`mning AQSh dollariga nisbatan devalvatsiya darajasi 2006 yilga nisbatan 4,6 martani tashkil qildi. Devalvatsiya zahirasi umumiy kapital hajmidagi salmog`ining yuqori bo`lishi bank-kapitali tarkibining barqarorligi nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Chunki devalvatsiya zahirasi nobarqaror moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Shuning uchun ham Xalqaro Bazel qo`mitasining ekspertlari uni tijorat banklari kapitalining tarkibiga kiritmagan.

1.3.2-jadval ma'lumotlaridan kurish mumkinki, 2009-2014 yillarda ustav kapitalining umumiy kapital hajmidagi salmog`i nisbatan past darajada saqlanib qolgan. Buning sababi shundaki, ushbu bank ustav kapitalining so`mdagi ekvivalenta tahlil qilingan davr mobaynida bir xil summada, ya'ni 22386 mln.so`m miqdorida saqlanib qolgan. Ustav kapitalining miqdori o`zgarmaganligi sababli uning umumiy kapital hajmidagi salmog`i pastligicha qolgan va mazkur ko`rsatkich 2014 yilda 2009 yilga nisbatan 1,3 foizli punktga pasaygan.

Shuningdek, keltirilgan jadval ma'lumotida joriy yil foydasining umumiy kapital hajmidagi salmog`ining juda past darajada ekanligi ko`rinadi. Ushbu holat TIF Milliy bankida foydaning kapitallashuv imkoniyatining cheklanganligidan dalolat beradi.

1.3.2-jadval ma'lumotlaridan TIF Milliy bankida taqsimlanmagan foydaning umumiy kapital hajmidagi salmog`ining 2011-2013 yillarda sezilarli darajada o`sganligi ko`rinadi. Bu esa, xukumatning Milliy bank faoliyatidagi ayrim muammolarni hal qilishga moliyaviy jixatdan kumaklashayotganligi bilan izoxlanadi. Muddati o`tgan kreditlarning yuqori salmokka ega ekanligi tijorat banking moliyavii holatiga, kapital bazasi barqarorligiga salbiy ta'sir ko`rsatadi.

### 1.3.3-jadval

#### O`zbekiston Respublikasi Aktsiyadorlik-tijorat "Sanoatqurilishbank"i umumiy kapitalining tarkibi va dinamikasi<sup>6</sup>

(foizda)

Umumiy kapitalning tarkibi	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2014 yilda 2009 yilga nisbatan o`zgarishi f.p.
Ustav kapitali	28,2	25,1	23,7	29,1	39,1	41,4	13,2
Zahira kapitali	41,0	43,5	44,5	41,2	36,2	32,6	8,4
Joriy yil foylasi	16,6	14,9	13,8	14,1	16,4	17,4	0,8
Taqsimlanmagan foyda	14,1	16,4	18,0	15,6	8,3	8,6	-5,5
Kapitalning boshqa elementlari	0,1	0,1	0,1	0,0	0,0	0,0	-0,1
Umumiy kapital-jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	x
<i>* ma'lumotlar har bir moliyaviy yilning 31 dekabr holatiga olingan</i>							

1.3.3-jadval ma'lumotlaridan ko`rinadiki, Sanoatqurilishbanki umumiy kapitalining tarkibida ustav kapitali sezilarli darajada yuqori salmokni egallayli. Buning ustiga, 2011-2013 yillarda ushbu ko`rsatkichning o`shish tendentsiyasi kuzatilgan. Bu esa, Sanoatqurilishbanki kapitali tarkibining barqarorligi nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Shuningdek, ushbu jadval ma'lumotlaridan ko`rinib turibdiki, zahira kapitali ham umumiy kapitalning hajmida yuqori salmokni egallaydi. Lekin ushbu holatni salbiy holat sifatida baholash mumkin emas. Buning sababi shundaki, Sanoatqurilishbanki zahira kapitalining hajmida Imtiyozli kreditlash fondining mablag`lari yuqori salmokni egallaydi. Masalan, 2013 yilda ushbu bankning zahira kapitali hajmida Imtiyozli kreditlash fondining mablag`lari 44,8 foizni tashkil qildi. 1.3.3-jadval ma'lumotlaridan ko`rinadiki, tahlil

<sup>6</sup> Aktsiyadorlik-tijorat "Sanoatqurilishbank"ning balans ma'lumotlari

qilingan davr mobaynida Sanoatkurilishbanki joriy yil foydasining umumiy kapital hajmidagi satmogiing nisbatan barqarorligi kuzatildi. Bu ijobiy holat hisoblanadi, albatta. Ushbu ko`rsatkichning darajasi 2014 yilda 2009 yilga nisbatan 0,8 foizli punktga ko`paydi. Bu esa, foydaning kapitallashish darajasini oshirish, aktsiyadorlarga normap darajada dividend tulashga tuskinlik qiladi.

Sanoatkurilishbankida ham TIF Milliy bankidagi kabi kapital boshqa elementlarining umumiy kapital hajmidagi sapmogi juda past bo`lib, 2012-2014 yillarda nol foizni tashkil etgan. Bu esa, Sanoatkurilishbanki qo`shimcha kapital bazasini shakllantirishda muammolarning mavjudligidan dalolat beradi. Xususan, Sanoatkurilishbankida subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari mavjud emas, bank koshida mustaqil bapansga ega bo`lmagan kredit muassasalarini ochish yo`lga kuyilmagan.

#### 1.3.4-jadval

### O`zbekiston Respublikasi Aktsiyadorlik-tijorat "Agrobank" umumiy kapitalining tarkibi va dinamikasi<sup>7</sup>

(foizda)

Umumiy kapitalning tarkibi	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2014 yilda 2009 yilga nisbatan o`zgarishi. f.p.
Ustav kapitali	25,0	24,4	22,2	20,4	35,9	30,8	5,8
Zahira kapitali	41,6	44,9	44,5	44,8	50,3	51,2	9,6
Joriy yil foydasi	17,0	11,6	14,7	11,8	13,6	14,4	-2,6
Taqsimlanmagan foyda	16,4	19,1	18,5	22,9	0,2	3,6	- 12,8
Kapitalning boshqa elementlari	0,0	0,0	0,1	0,1	0,0	0,0	0,0
Umumiy kapital-jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	x

\* ma'lumotlar har bir moliyaviy yilning 31 dekabr holatiga olingan.

1.3.4-jadval ma'lumotlaridan ko`rinadiki, 2009-2014 yillarda Agrobank umumiy kapitalining hajmida ustav kapitalining salmog`i pasayish tendentsiyasiga

<sup>7</sup> O`zbekiston Respublikasi Aktsiyadorlik-tijorat "Agrobank" balans malumotlari

ega bo`lgan. Bu esa, bank kapitali tarkibining barqarorligi nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Chunki ustav kapitali umumiy kapitalning boshqa elementlariga nisbatan barqarorlik darajasi yuqori bo`lgan moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Ammo 2014 yilda ustav kapitalining umumiy kapital hajmidagi salmog`ining 2008 yilga nisbatan 5.8 foizli punktga oshganligi ijobiy holat hisoblanadi.

2009-2014 yillarda Agrobank umumiy kapitalining umumiy hajmida zahira kapitalining salmog`i o`tish tendentsiyasiga ega bo`lgan. Bu esa, ijobiy tendentsiya hisoblanadi. Chunki Agrobank zahira kapitalining sezilarli qismini Imtiyozli kreditlash fondining mablag`lari tashkil etadi. Masalan, 2014 yilning 31 dekabr holatiga, Agrobank zahira kapitalining hajmida Imtiyozli kreditlash fondi mablag`larining salmog`i 27,5 foizni tashkil qildi. Imtiyozli kreditlash fondining mablag`lari banklarning foydasi hisobidan tashkil etiladi va ular hisobidan berilgan kreditlardan olinadigan foizli daromadlar soliقدan ozod qilinadi.

2014 yilda Agrobank umumiy kapitalining hajmida joriy yil foydasi va taqsimlanmagan foyda salmog`ining 2009 yilga nisbatan sezilarli darajada pasayishi kuzatildi. Bu esa, foydaning kapitallashish darajasini oshirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

1.3.5-jadval ma'lumotlaridan ko`rinadiki, 2009-2014 yillarda Asakabank umumiy kapitalining hajmida ustav kapitalining salmog`i pasayish tendentsiyasiga ega bo`lgan. Bu esa, salbiy tendentsiya hisoblanadi va bank kapitali tarkibining barqarorlik darajasining pasayayotganligidan dalolat beradi.

Jadval ma'lumotlaridan ko`rinadiki, tahlil qilingan davr mobaynida Asakabank umumiy kapitalining hajmida zahira kapitalining salmog`i yuqori darajada saqlanib qolgan. Bu esa, bank kapitali tarkibining barqarorligi nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Buning sababi shundaki, Asakabank zahira kapitalining asosiy qismi devalvatsiya zahirasi hisoblanadi. Devalvatsiya zahirasi esa nobarqarorlashtirish manbai hisoblanadi. Masalan, 2014 yilning 31 dekabr holatiga, Asakabank zahira kapitalining 95,2 foizi zahira kapitalining xissasiga to`g`ri keldi.

### 1.3.5-jadval

#### O`zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat "Asakabank" umumiy kapitalining tarkibi va dinamikasi<sup>8</sup>

(foizda)

Umumiy kapitalning tarkibi	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2014 yilda 2009 yilga nisbatan o`zgarishi, f.p.
Ustav kapitali	4,2	3,8	3,3	3,2	3,0	2,8	-1,4
Zahira kapitali	91,2	90,7	92,3	91,9	90,5	90,0	-1,2
Joriy yil foydasi	3,4	3,8	2,3	2,5	3,3	3,6	0,2
Taqsimlanmagan foyda	1,1	1,7	2,1	2,3	3,1	3,4	3,3
Kapitalning boshqa elementlari	5,0	0,1	0,0	0,0	0,1	0,2	-4,8
Umumiy kapital-jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	X

\* ma'lumotlar har bir moliyavy yilning 31 dekabr holatiga olingan.

1.3.5-jadval ma'lumotlaridan ko`rinadiki, Asakabank umumiy kapitalining tarkibida qo`shimach kapital elementlari deyarli mavjud emas. Bu esa, bankning qo`shimcha kapitalini shakllantirish borasida yetarli darajada ishlarning olib borilmayotganligidan dalolat beradi.

<sup>8</sup> O`zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat "Asakabank balans ma'lumotlari

### 1.3.6-jadval

#### ATIB Ipoteka bank Xorazm viloyati filialining umumiy kapitalining tarkibi va dinamikasi<sup>9</sup>

(foizda)

Umumiy kapitalning tarkibi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2015 yilda 2010 yilga nisbatan o`zgarishi, f.p.
Ustav kapitali	20	26	15	20	16	21	+1
Zahira kapitali	60	51	38	43	34	41	-19
Joriy yil foydasi	18	17	40	30	43	36	+12
Taqsimlanmagan foyda	2	6	7	7	7	8	+6
Kapitalning boshqa elementlari	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0
Umumiy kapital-jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	X

\* ma'lumotlar har bir moliyaviy yilning 31 dekabr holatiga olingan.

<sup>9</sup>ATIB ioteka bank Xorazm viloyati filiali balans malumotlari

## **2- BOB. O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARIDA BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI (ATIB IPOTEKA BANK XORAZM VILOYATI FILIALI)**

### **2.1. O'zbekistonda bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlashdagi muammolar**

Devalvatsiya zahirasi tijorat banklarining umumiy kapitali tarkibida hisobga olish maqsadga muvofiq emas. Buning sababi shundaki, birinchidan, devalvatsiya zahirasi beqaror moliyalashtirish manbai hisoblanadi; ikkinchidan, Bazil qo`mitasi devalvatsiya zahirasi tijorat banklarining kapitali tarkibida hisobga olishga ruxsat etmaydi.

Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish bo`yicha Xalqaro Bazil qo`mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standart va uning takomillashtirilgan varianti bo`lgan Bazil-II da tijorat banklari kapitali tarkibini shakllantirishga bevosita ta'sir qiluvchi talablar mavjud. Bu esa, mazkur talablarning tijorat banklari kapital bazasiga ta'siri masalasini ilmiy asosda tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Xalqaro Bazil standarti bo`yicha tijorat banklarining asosiy kapitali barqaror moliyalashtirish manbalaridan tashkil topishi lozim. Shu sababli, Bazil qo`mitasining talabiga ko`ra asosiy kapitalning tarkibiga quyidagi manbalargina kiritilishi lozim:

- ustav kapitalining to`langan qismi;
- bankning emission daromadi;
- zahira kapitali;
- o`tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi;
- bankning nokumulyativ imtiyozli aksiyalarini sotishdan olingan tushum.

O`tish iqtisodiyoti mamlakatlarida banklarning asosiy kapitalini yetarli darajada shakllantirishda muammolarning mavjudligi (moliya bozorlarining rivojlanmaganligi natijasida tijorat banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog`ozlarning fond birjasida kotirovka qilinmasligi, bank aktivlari daromadlilik darajasining pastligi tufayli sof foyda va taqsimlanmagan foyda miqdorining kamligi, tijorat banklari aksiyalariga to`lanayotgan dividendlar darajasining

pastligi va h.k.) tijorat banklari kapitalini shakllantirishda beqaror moliyalashtirish manbalaridan ham foydalanish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Xususan, ko'pchilik o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida devalvatsiya zahirasi tijorat banklarining asosiy kapitali tarkibiga kiritilmoqda. Holbuki, devalvatsiya zahirasi beqaror moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Ushbu zahira milliy valutaning xorijiy valutaga nisbatan qadrsizlanishi natijasida tijorat banklarining ustav kapitaliga qo'yilgan xorijiy valutadagi mablag`lar hisobidan shakllanadi.

Bazel-II standartida operatsion risk bo'yicha kapitalning yetarliligini hisoblash uchun uch usuldan foydalanish tavsiya etilgan. Birinchi usul bazaviy indikator usuli, ikkinchi usul – standart usul, uchinchi usul esa, kengaytirilgan usul hisoblanadi. Mazkur usullar bo'yicha hisoblangan kapitalning yetarlilik koeffitsientlari bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. Shu sababli, fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mavjud uch usuldan birini tanlab olishi va respublikamiz tijorat banklarining barchasida operatsion risk bo'yicha kapitalning yetarliligi ana shu usulda hisoblanishi lozim. Fikrimizcha, kapitalning yetarliligini hisoblashning kengaytirilgan usulini respublikamiz bank amaliyotida qo'llash uchun sharoit mavjud emas.

**2.1.1-jadval**  
**O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari regulyativ kapitalining tarkibi**<sup>10</sup>  
(foizda)

Regulyativ kapital tarkibi	Yillar					2014 yilda 2010 yilga nisbatan o'zgarishi, f.p.
	2010	2011	2012	2013	2014	
Ustav kapitali	17,6	24,9	28,1	34,7	38,8	21,2
Zahira kapitali	70,0	61,5	57,3	51,1	45,3	- 24,7
Joriy yil foydasi	4,8	8,2	7,5	8,9	9,6	5,8
Taqsimlanmagan foyda	7,2	5,3	6,1	5,2	6,2	- 1,0
Kapitalning boshqa elementlari	0,4	0,1	1,0	0,1	0,1	-
Regulyativ kapital – jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	x

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining yillik hisobot ma'lumotlari.

2.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko`rinadiki, 2010-2014 yillar mobaynida respublikamiz tijorat banklari regulyativ kapitalining tarkibida ustav kapitalining salmog`i yuqori sur'atlarda o`tdi. Bu esa, mamlakatimiz hukumati va Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ustav kapitalini oshirish siyosatini olib borilayotganligi bilan izohlanadi. Birgina 2012 yilning o`zida respublikamizning yirik, tizimli tijorat banklarining ustav kapitaliga 500 mlrd. so`mdan ortiq miqdordagi summa davlat budjetining mablag`lari hisobidan yo`naltirildi<sup>11</sup>.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 7 noyabrdagi PQ-726-sonli “Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo`sh pul mablag`larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarorining qabul qilinishi respublikamiz banklarining kapitallashish darajasini oshirish yo`lidagi muhim qadam bo`ldi. Mazkur Qarorga muvofiq, 2008 yilning 1 yanvaridan boshlab yangi tashkil etilayotgan banklar ustav kapitalining eng kam tijorat banklari uchun so`m ekvivalentida 5 mln.evro miqdorida, xususiy banklar uchun - so`m ekvivalentida 2,5 mln. evro miqdorida belgilandi.

Ushbu qarorda mamlakatimiz tijorat banklarining hozirga qadar samarali investitsiya markazlariga aylanmaganligi, korxonalarni modernizatsiya qilish va texnologik qayta jihozlashda o`z kapitali bilan sust qatnashayotganligi alohida ta'kidlandi.

Respublikamiz tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirishning muhim me'yoriy-huquqiy asoslaridan yana biri O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil iyul oyidagi PQ-670-sonli “Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori hisoblanadi<sup>12</sup>. Mazkur Qarorga muvofiq, O`zbekiston Respublikasi tijorat banklarining ustav kapitali miqdorini oshirish, ularning kapitaliga aholi, tadbirkorlik sub'ektlari va ehtimol tutilgan investorlar, shu jumladan, xorijiy investorlarning bo`sh pul mablag`larini jalb qilish uchun aktsiyalar chiqarish va ularni fond bozorida faol

---

<sup>11</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Toshkent: O`zbekiston, 2010. – B. 35.

<sup>12</sup> “O`zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to`plami”. – Toshkent, 2007 y. - №27-28, 284-modda.

joylashtirish hisobiga banklarning kapitallashuv darajasini oshirishning dolzarb masala ekanligi e'tirof etildi. Bundan tashqari, tijorat banklarining o'z kapitali hisobidan yangi zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil qilish hamda mavjud korxonalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jixozlashdagi investitsiya jarayonlarida keng ishtirok etishi, shu asosda raqobatbardosh, eksportga yo'naltirilgan maxsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va aholi bandligini oshirishni ta'minlash vazifasi qo'yildi.

Iqtisodiy tahlilni kuchaytirish maqsadida respublikamizning qator yirik tijorat banklari regulyativ kapitalining tarkibini ko'rib chiqamiz.

### 2.1.2-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi Ochiq Aktsiyadorlik-tijorat "Agrobank"i regulyativ kapitalining tarkibi va dinamikasi<sup>13</sup>

(foizda)

Umumiy kapitalning tarkibi	2010	2011	2012	2013	2014	2014 yilda 2010 yilga nisbatan o'zgarishi, f.p.
Ustav kapitali	24,4	22,2	20,4	35,9	30,5	6,1
Zahira kapitali	44,9	44,5	44,8	50,3	48,8	3,9
Joriy yil foydasi	11,6	14,7	11,8	13,6	15,5	3,9
Taqsimlanmagan foyda	19,1	18,5	22,9	0,2	5,2	- 13,9
Kapitalning boshqa elementlari	0,0	0,1	0,1	0,0	0,0	0,0
Umumiy kapital-jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	x

2.1.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2010-2014 yillarda Agrobank umumiy kapitalining hajmida ustav kapitalining salmog'i pasayish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, bank kapitali tarkibining barqarorligi nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Chunki ustav kapitali umumiy kapitalning boshqa elementlariga

<sup>13</sup> OAT "Agrobank"ning balans ma'lumotlari.

nisbatan barqarorlik darajasi yuqori bo`lgan moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Ammo 2014 yilda ustav kapitalining umumiy kapital hajmidagi salmog`ining 2010 yilga nisbatan 6,1 foizli punktga oshganligi ijobiy holat hisoblanadi.

2010-2014 yillarda Agrobank umumiy kapitalining umumiy hajmida zahira kapitalining salmog`i o`shish tendentsiyasiga ega bo`lgan. Bu esa, ijobiy tendentsiya hisoblanadi. Chunki Agrobank zahira kapitalining sezilarli qismini Imtiyozli kreditlash fondining mablag`lari tashkil etadi. Masalan, 2014 yilning 31 dekabr holatiga, Agrobank zahira kapitalining hajmida Imtiyozli kreditlash fondi mablag`larining salmog`i 27,5 foizni tashkil qildi. Imtiyozli kreditlash fondining mablag`lari banklarning foydasi hisobidan tashkil etiladi va ular hisobidan berilgan kreditlardan olinadigan foizli daromadlar soliقدan ozod qilinadi.

2014 yilda Agrobank umumiy kapitalining hajmida joriy yil foydasi va taqsimlanmagan foyda salmog`ining 2010 yilga nisbatan sezilarli darajada pasayishi kuzatildi. Bu esa, foydaning kapitallashish darajasini oshirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

2.1.3-jadval

**O`zbekiston Respublikasi yirik tijorat banklari umumiy kapitalining yetarliligi<sup>14</sup>**

Banklar	Yillar					
	2009	2010	2011	2012	2013	2014
Ipotekabank	0,23	0,17	0,34	0,21	0,25	0,28
Agrobank	0,24	0,21	0,15	0,14	0,13	0,11
Qishloq qurilish bank	0,32	0,35	0,33	0,34	0,43	0,40

2.1.3-jadval ma'lumotlaridan ko`rinadiki, respublikamizning yirik tijorat banklari bo`lgan Ipotekabank, Agrobank va Qishloq qurilish bankda tijorat banklari umumiy kapitalining yetarliligi bo`yicha belgilangan normativ talabi bajarilgan. Ammo OAT "Agrobankda" 2009-2014 yillarda umumiy kapitalning yetarlilik koeffitsienti pasayish tendentsiyasiga ega bo`lgan va normativning

<sup>14</sup> Mazkur tijorat banklarining yillik hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

minimal darajasiga kelib qolgan. Bu esa, Agrobankning to'lovga qobillik darajasining yomonlashayotganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, Ipotekabankda ham 2014 yilda umumiy kapitalning yetarlilik koeffitsienti 2011 yilga nisbatan yetarli darajada pasaygan.

## **2.2. O'zbekistonda bank tizimida zamonaviy xizmatlar samaradorligini oshirish yo'nalishlari**

Respublikamiz tijorat banklari kapitalining yetarlilik darajasiga baho berish uchun tijorat banklari umumiy kapitali summasining yalpi ichki maxsulot (YaIM) hajmidagi salmog'ining o'zgarishini tahlil qilamiz. Chunki har kandy mamlakat bank tizimining to'lovga kobilligi banklar umumiy kapitali summasini YaIM daig salmog'ining darajasiga karab makrodarajada aniqlanadi.

Quyidagi jadval ma'lumotlari orkali mamlakatimiz bank tizimi kapitalining yetarliligiga baho beramiz.

### **2.2.1 - jadval**

#### **O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari umumiy kapitali va uning yetarliligi<sup>15</sup>**

	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2014 yilda 2009 yilga nisbatan o'zgarishi
Tijorat banklari umumiy kapitalining miqdori, mlrd.so`m	714	791	824	931	1070	1503	299,4 %
Tijorat banklari umumiy kapitalining YaIMdagi salmog`i. %	9,6	8,0	6,7	6,1	5,2	5,3	- 4,9 f.p.

<sup>15</sup>Uzbekiston Respublikasi Markaziy bankining xisobot ma'lumotlari.

2.2.1-jadval ma'lumotlaridan ko`rinadiki, 2009-2014 yillarda respublikamiz tijorat banklari kapitalining miqdori o`shish tendentsiyasiga ega bo`ldi. Ammo mazkur o`shish tendentsiyasi mamlakat bank tizimi kapitalining yetarliligini ta'minlash imkonini bermadi. Tahlil qilingan davr mobaynida respublikamiz tijorat banklari umumiy kapitalining YaIMdagi salmog`i pasayish tendentsiyasiga ega bo`ldi. Pirovard natijada tijorat banklari kapitalining YaIMga nisbatan salmog`i me'yoriy 6 foizli chegaraga etmadi. Bu esa, o`z navbatida, tijorat banklari kapitalining yetarli emasligidan dalolat beradi.

Mamlakatda tijorat banklari kapitalining yetarli ekanligi investitsion loyihalarni tijorat banklari kreditlari hisobidan molyailashtirish hajmini oshirish imkonini beradi. Chunki tijorat banklari investitsion loyihalarni kreditlashda ko`proq kapital bazasidan foydalanadi. Buning sababi shundaki, tijorat banklarining kapital bazasining barqarorligi ularning depozit bazasining barqarorlik daraajisidan yuqori hisoblanadi.

## 2.2.2-jadval

### O`zbekiston Respublikasi yirik tijorat banklari umumiy kapitalining yyetarlili<sup>16</sup>

<b>Banklar</b>	<b>2009</b>	<b>2010</b>	<b>2011</b>	<b>2012</b>	<b>2013</b>	<b>2014</b>
TIF Milliy banki	0,31	0,26	0,29	0,31	0,28	0,30
Sanoatkurilishbanki	0,17	0,14	0,14	0,14	0,15	0,18
Agrobank	0,28	0,24	0,21	0,15	0,14	0,12
Asakabank	0,40	0,31	0,32	0,24	0,21	0,20
Qishloqqurilishbank	0,23	0,32	0,35	0,33	0,34	0,36
<i>* ma'lumotlar har bir moliyaviy yilning 31 dekabr holatiga olingan.</i>						

<sup>16</sup> Mazkur jadval tijorat banklarning yillik hisobot ma'lumotlari asosida

2.2.2-jadval ma'lumotlaridan ko`rinadiki, respublikamizning yirik tijorat banklarining barchasi O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklari umumiy kapitalining yetarliligiga nisbatan belgilangan normativ talab bajarilgan. Lekin ayrim yirik tijorat banklarida kapitalning yetarlilik darajasining tahlil qilingan davr mobaynida pasayganligi kuzatilgan. Bu esa, salbiy holat hisoblanadi va banklarning to`lovga kobillik darajasining pasayib borayotganligidan dalolat beradi.

### 2.2.3-jadval

#### O`zbekiston Respublikasi yirik tijorat banklari asosiy kapitalining yetarliligi<sup>17</sup>

Banklar	2009	2010	2011	2012	2013	2014
TIF Milliy banki	0,32	0,26	0,34	0,32	0,28	0,27
Sanoatqurilishbanki	0,14	0,14	0,12	0,12	0,12	0,12
Agrobank	0,24	0,24	0,19	0,14	0,14	0,15
Asakabank	0,40	0,30	0,32	0,28	0,26	0,24
Qishloqqurilishbank	0,19	0,27	0,29	0,29	0,33	0,34

\* ma'lumotlar har bir moliyaviy yilning 31 dekabr holatiga olingan.


2.2.3-jadval ma'lumotlaridan ko`rinadiki, respublikamiz yirik tijorat banklari O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklari asosiy kapitalining yetarliligiga nisbatan belgilangan normativ talab bajarilgan. Lekin ayrim yirik tijorat banklarida asosiy kapitalning yetarlilik darajasining tahlil qilingan davr mobaynida pasayganligi kuzatilgan. Bu esa, salbiy holat hisoblanadi va banklarning to`lovga kobillik darajasining pasayib borayotganligidan dalolat beradi.

Respublikamiz tijorat banklari kapital bazasining barqarorligini ta'minlash maqsadida umumiy kapitalning o`shish sur'ati bilan jami passivlarning o`shish sur'atlari o`rtasidagi farkni kiskartirish talab etiladi. Aks holda, tijorat banklari passivlarining barqarorligiga va kapital bazasining yetarliligiga nisbatan salbiy ta'sir yuzaga keladi.

<sup>17</sup> Mazkur jadval tijorat banklarning yillik hisobot ma'lumotlari asosida

## 2.2.1-diagramma

### ATIB Ipoteka banki Xorazm filialining asosiy kapitalining yetarliligi koeffitsienti dinamikasi <sup>18</sup>



Xalqaro bank amaliyotida, dividend siyosatini bank kapitali miqdorini kamaytirmasdan amalga oshirish maqsadida quyidagi uchta usuldan foydalaniladi:

a) dividendlarni investitsiya qilish;

Ushbu usul bank kapitalini oshishiga olib keladi. Bank kapitalining oshishi uning to'lov kobilyatini mustahkamlashga xizmat qiladi, lekin uning daromadini o'sishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etmaydi. Chunki bank kapitalining oshishi uning ximoya funksiyasini mustahkamlab, bankning moliya bozoridagi iqtisodiy mavkeini kutarish bilan birga, ikkilamchi moliya bozoridagi qatnashuvini jadallashtiradi.

b) dividendlarni bankning aksiyalari bilan tulash;

Albatta, dividend siyosatini olib borishda ushbu usul ham bank kapitali miqdorining oshishiga xizmat qiladi. Lekin bankning moliya bozoridagi aksiyalari kursiga ta'sir utkazadi. Birinchidan, bankning aksiyalarini sotib olishga bo'lgan talabning kamayishiga olib keladi, bu esa bankning aksiyalarini bahosini tushirib

<sup>18</sup>Manbaa: ATIB Ipoteka banki Xorazm filialining balans ma'lumotlari

keboradi. Ikkinchidan, bank aktsiyadorlari va moliya bozorining boshqa qatnashchilarida bankning dividend siyosatiga nisbatan ishonchni pasayishiga olib keladi. Demak, ushbu usulni kullashda bank aktsiyadorlarining hisobot yigilishidagi qarori muhim rol o`ynaydi. Unga ko`ra, bankning dividend to`lovlari o`rniga aktsiyalar berilishi moliya bozorida va aktsiyadorlar o`rtasida bankning aktsiyalariga bo`lgan talab asosiy e`tiborga olingan holda qaror kabul qilinadi. Ushbu holatda, bankning aktsiyalari moliya bozorida nominal baholarda sotilishi, bankning dividend siyosatiga va uning aktsiyalari bahosiga salbiy ta'sir utkazmaydi. Shu bilan birga, bankning jami kapitali tarkibidagi emission daromadlarini vujudga kelmasligiga olib keladi.

### **2.3. Tijorat banklari kapitallashuv darajasi va depozit bazasini mustahkamlash imkoniyatlari**

Bitiruv malakaviy ishida qayd etilgan muammolarni hal qilish respublikamiz tijorat banklarining depozit bazasini mustahkamlash imkonini beradi. Fikrimizcha, mazkur muammolarni hal qilish quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi:

1. Respublikamiz tijorat banklari depozit bazasining yetarliligini ta'minlash maqsadida: birinchidan, O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklarining muddatli va jamg`arma depozitlariga nisbatan o`rnatilgan majburiy zahira stavkalarini 50 foizga pasaytirish va 7,5% darajasida belgilash hamda transaksion depozitlarga nisbatan amaldagi 13 foizli stavkani saqlab qolish zarur. Buning natijasida tijorat banklari tomonidan muddatli va jamg`arma depozitlariga to`lanayotgan foiz stavkalarini sezilarli darajada oshirish imkoni yuzaa keladi, tijorat banklarining transaksion depozit hisobraqamlarida yirik miqdorda mablag`lar saqlab turishdan manfaatdorligi yo`qoladi. Chunki majburiy zahira stavkalari o`rtasidagi 7,5 foizli farq yuqori darajadagi farq hisoblanadi. Ikkinchidan, tijorat banklariga transaksion depozit hisobraqamlaridagi mablag`lardan to`g`ridan-to`g`ri, ya'ni muddatli depozit shartnomasi tuzmasdan turib resurs sifatida foydalanish amaliyotiga chek qo`yish lozim. Bitiruv malakaviy

ishning oldingi boblarida amalga oshirilgan tahlillarning natijalari shuni ko'rsatdiki, respublikamizning qator tijorat banklarida transaksion depozit hisobraqamlaridagi pul mablag'laridan to'g'ridan-to'g'ri resurs sifatida foydalanish amaliyoti mavjud. Ushbu amaliyotning mavjudligi tijorat banklarining depozit bazasini mustahkamlashga bo'lgan qiziqishiga putur etkazadi, chunki transaksion depozit arzon resurs hisoblanadi. Bundan tashqari, tijorat banklarining likvidliligiga nisbatan jiddiy salbiy ta'sir yuzaga keladi. Buning boisi shundaki, transaksion depozit tijorat bankining beqarorlik darajasi juda yuqori bo'lgan passivi hisoblanadi (u istalgan vaqtda hisobraqam egasi tomonidan talab qilib olinishi mumkin). O'z navbatida, tijorat bankining likvidliligiga putur etishi uning reputatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va buning oqibatida mazkur bankining depozitlar jalb etish imkoniyati pasayadi. Bunday holat xalqaro bank amaliyotida ko'p bora o'z isbotini topgan. Jumladan, AQShda 1933 yilda qabul qilingan Glass-Stigol qonuniga ko'ra transaksion depozit hisoraqamlarining qoldig'iga foiz to'lash ta'qiqlandi. Buning sababi shundaki, 1929-1933 yillarda yuz bergan Jahon iqtisodiy inqirozi paytida AQSh banklarining ommaviy tarzda bankrot bo'lishining asosiy sabablaridan biri sifatida transaksion depozit hisobraqamlaridagi pul mablag'laridan to'g'ridan-to'g'ri resurs sifatida foydalanilganligi e'tirof etildi.

Respublikamiz tijorat banklari depozit bazasining yetarli emasligi ularni transaksion depozitlardan resurs sifatida foydalanishga majbur qilmoqda. Bu esa, ularning likvidliligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Lekin shu o'rinda qayd etish joizki, tijorat banklari mazkur salbiy ta'sirning darajasini pasaytirish maqsadida transaksion depozitlarning barqaror qoldig'idan foydalanish usulini qo'llamayotirlar.

2. Tijorat banklari depozitlarining kredit sifatida joylashtirish jarayonida yuzaga kelayotgan transformatsiya riskiga barham berish maqsadida depozitlar va kreditlarning muddatlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash lozim.

Respublikamizning qator yirik tijorat banklarida transformatsiya riskining mavjudligi ularning depozit bazasi barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirmoqda. Masalan, 2014 yilning 1 yanvar holatiga, AT "Agrobank"da 31

kundan 180 kungacha muddatga jalb qilingan muddatli depozitlarning miqdori 22648,0 mln. so`mni tashkil qilgani holda, ushbu muddatga mijozlarga berilgan kreditlarning miqdori 5922,0 mln. so`mni tashkil qildi. ATIB “Ipotekabank”da mazkur sanaga 31 kundan 180 kungacha muddatga jalb qilingan depozitlarning miqdori so`mni tashkil qilgani holda, ushbu muddatga mijozlarga berilgan kreditlarning miqdori 5922,0 mln. so`mni tashkil qildi. 31 kundan 180 kungacha muddatga jalb qilingan muddatli depozitlarning miqdori 422,7 mln. so`mni tashkil qilgani holda, ushbu muddatga mijozlarga berilgan kreditlarning miqdori 28770,9 mln. so`mni tashkil qildi.

Yuqorida keltirilgan amali ma'lumotlar respublikamizning yirik tijorat banklarida transformatsiya riskining mavjud ekanligidan dalolat beradi. O`z navbatida, transformatsiya riski tijorat banklarida likvidlilik riski muammosining chuqurlashishiga olib keladi. Natijada, tijorat banklarining mijozlar oldidagi majburiyatlarini bajarishda, birinchi navbatda, depozitlar va ularga hisoblangan foizlarni o`z vaqtida va to`liq qaytarilishini ta'minlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish jarayonida depozitlar va kreditlarning muddatlari o`rtasidagi muvofiqlikning holatiga alohida e'tibor qaratishi lozim.

3. Tijorat banklari tomonidan muddatli depozitlarga to`lanadigan foiz stavkalarining barqarorligini ta'minlash maqsadida:

birinchidan, Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati orqali milliy ssuda kapitallari bozorida depozitlar va kreditlarning bozor stavkalariga ta'sir etish darajasini oshirish lozim;

ikkinchidan, Markaziy bank o`zining REPO operatsiyalari orqali hukumat qimmatli qog`ozlari foiz stavkalarining barqarorligini ta'minlashga erishishi zarur;

uchinchidan, tijorat banklari sof foizli spread koeffitsientining barqaror darajasini ta'minlashlari zarur.

Respublikamizda milliy ssuda kapitallari bozorining shakllanish jarayoni nihoyasiga etgani yo`q. Shu sababli, so`mdagi depozitlar va kreditlarning bozor

bahosini shakllantirishning iloji bo'lmay turibdi. To'g'ri, pul bozorining indikatorlari e'lon qilinmoqda (UZIBOR, UZIAR, UZIBID). Lekin ushbu indikatorlar hozirgi kunda tijorat banklaridan olingan foiz stavkalari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida shakllantirilmogda. Aslida ular resurslarning banklararo savdosi natijalari asosida shakllantirilishi lozim. Shu jihatdan olganda, aytish mumkinki, pul bozorining amaldagi indikatorlari qisqa muddatli kredit resurslarining bozor bahosi hisoblanmaydi. Shu sababli, bu boradagi birinchi hal qilinishi lozim bo'lgan masala, fikrimizcha, mamlakatimizda ssuda kapitallari bozorini shakllantirish jarayonini nihoyasiga etkazish yo'li bilan so'mdagi depozitlar va kreditlarning bozor bahosini aniqlashga erishish hisoblanadi.

Milliy ssuda kapitallari bozori shakllantirilgandan so'ng Markaziy bank o'zining qayta moliyalash siyosati orqali so'mdagi depozitlar va kreditlarning bozor stavkalariga ta'sir etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlarning (AQSh, Yaponiya va Evropa Ittifoqi mamlakatlari) bank amaliyotida markaziy banklar qayta moliyalash kreditlari miqdorini va foiz stavkalarini o'zgartirish yo'li bilan milliy valutadagi depozitlar va kreditlarning foiz stavkalariga bevosita ta'sir ko'rsatadilar. Bunda Markaziy bank tomonidan beriladigan diskont, lombard va overdraft kreditlaridan foydalaniladi. Rivojlangan davlatlarning bank amaliyotida doimiy ravishda beriladigan markazlashgan kredit bo'lib, diskont kreditlari hisoblanadi. Shu sababli ularning miqdori lombard va overdraft kreditlarining miqdoriga nisbatan sezilarli darajada katta bo'ladi.

Odatda, diskont kreditlari deganda Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga trattalarni qayta hisobga olish yo'li bilan beriladigan kreditlarga aytiladi. Markaziy bank diskont kreditlari miqdori va diskont stavkasini o'zgartirish yo'li bilan milliy ssuda kapitallari bozoridagi depozitlar va kreditlarning foiz stavkalariga ta'sir qiladi. Lekin respublikamizda Markaziy bankning diskont stavkasining mavjud emasligi uning so'mdagi depozitlar va kreditlarning foiz stavkalariga ta'sir etish imkoniyatini sezilarli darajada pasaytiradi.

Tijorat banklari depozitlarining bozor stavkasini shakllantirishda hukumatning qisqa muddatli obligatsiyalarining foiz stavkasi muhim o`rin tutadi. Buning sababi shundaki, xo`jalik yurituvchi sub'ektlar va aholining ko`pchiligi muddatli va jamg`arma depozitlarining daromadlilik darajasini hukumatning qisqa muddatli obligatsiyalarining daromadlilik darajasi bilan solishtiradilar. Shuning uchun ham hukumat qisqa muddatli obligatsiyalari foiz stavkasining barqarorligi tijorat banklari muddatli va jamg`arma depozitlarining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o`ynaydi. Markaziy bank esa, o`zining REPO operatsiyalari orqali hukumat qimmatli qog`ozlari foiz stavkalarining barqarorlik darajasini oshirishi mumkin. Masalan, Markaziy bank hukumat qimmatli qog`ozlarini qayta sotib olish sharti bilan sotish orqali ularning bozor bahosini oshirishi mumkin.

Lekin shu o`rinda e'tirof etish joizki, O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining REPO operatsiyalari orqali hukumat qimmatli qog`ozlarining foiz stavkalarini barqarorlashtirish imkoniyati past hisoblanadi. Buning sababi shundaki, hukumat qimmatli qog`ozlarining emissiya hajmi kichik. 2010 yilning 1 yanvar holatiga, respublikamiz tijorat banklarining hukumatning qimmatli qog`ozlariga qilingan investitsiyalarining ularning brutto aktivlari hajmidagi salmog`i atigi 0,9 foizni tashkil qildi<sup>19</sup>. Bunday sharoitda, fikrimizcha, Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalari hajmini oshirish talab etiladi.

4. Suzuvchi foiz stavkalarida muddatli depozitlar qabul qilish amaliyotini joriy qilish va jamg`arma depozitlari foiz stavkalarining salbiy darajaga ega bo`lishiga yo`l qo`ymaslik lozim.

Muddatli depozitlarga nisbatan suzuvchi foiz stavkalarining qo`llanilishi muddatli depozitlarning mijozlar uchun iqtisodiy jozibadorligini oshiradi, tijorat banklarining faoliyatidagi foiz riskini pasaytirishga xizmat qiladi, depozitlar bozor bahosining o`zgarishini aniqroq hisobga olish imkonini beradi. Lekin buning uchun milliy ssuda kapitallari bozorining shakllanish jarayoni nihoyasiga etgan bo`lishi lozim.

Respublikamiz tijorat banklarining jamg`arma depozitlari bo`yicha foiz

---

<sup>19</sup> O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

stavkalari darajasi ijobiy bo`lishi lozim. Buning uchun ularning amaldagi darajasi inflyatsiya darajasidan yuqori bo`lishi lozim. Respublikamiz iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida milliy valutaning devalvatsiya muammosi mavjud emas. Chunki so`mning qadrsizlanish sur'ati tobora pasayib bormoqda. Shu sababli, jamg`arma depozitlarining foiz stavkalarini belgilashda asosiy e'tibor inflyatsiya darajasiga qaratilishi lozim.

5. Respublikamiz tijorat banklari depozit bazasining yetarliligini baholash uslubiyotini takomillashtirish lozim.

Shunisi xarakterliki, XTTB ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan metodikada transaksion depozitlarning barqaror qoldig`i tijorat banklari depozit bazasining yetarliligini aniqlashda hisobga olinmagan.

Fikrimizcha, AQSh FZT mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan metodika XTTBning tijorat banklari depozit baholash metodikasiga nisbatan mukammalligi shundaki, birinchidan, unda transaksion depozitlarning barqaror qoldig`i hisobga olingan; ikkinchidan, jamg`arma depozitlarining faqat barqaror qoldig`i asosiy depozit tarkibiga kiritiladi. Chunki jamg`arma depozitlarining ma'lum qismi beqaror passiv hisoblanadi. Lekin ushbu metodikani hisoblash uslubi murakkab. Chunki undan foydalanish uchun transaksion depozitlarning ham, muddatli va jamg`arma depozitlarining ham barqaror qoldig`ini hisoblashga to`g`ri keladi. Lekin jamg`arma depozitlarining barqaror qoldig`ini aniqlash tijorat banki depozit bazasining barqarorligini oshirish nuqtai-nazaridan amaliy ahamiyat kasb etmaydi. Chunki respublikamiz bank amaliyotida jamg`arma depozitlari barqaror resurs manbai hisoblanmaydi.

“NAU” hisobraqamlarining qoldig`i barqarorligi jihatidan transaksion depozitlarning barqaror qoldig`iga teng. Shuning uchun ularning qoldig`ini tijorat banki depozit bazasining barqarorligini aniqlashda hisobga olishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Tijorat banklari muddatli depozitlarga mijozlar uchun maqbul stavkalarda foizlar to`lashi uchun yetarli darajada moliyaviy imkoniyatga ega bo`lishlari zarur. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining muddatli va jamg`arma depozitlariga

foiz to'lash bo'yicha moliyaviy imkoniyatini baholash maqsadida Xalqaro ta'mirlash va taraqqiyot banki (XTTB) ekspertlari ishlab chiqqan metodikadan foydalaniladi. Mazkur metodika bo'yicha, tijorat banklarida sof foizli spred koeffitsientining me'yoriy darajasi 1,25 foizni tashkil etadi. Ammo shuni ta'kidlash joizki, XTTB ekspertlari o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida inflyatsiya darajasining nisbatan yuqori ekanligini hisobga olib, sof foizli spred koeffitsientining me'yoriy darajasini inflyatsiyaning amaldagi darajasini hisobga olgan holda o'rnatish zarur, deb hisoblaydilar.

6. Tijorat banklari depozit portfelini shakllantirish instrumentlaridan foydalanish amaliyotini takomillashtirish zarur.

Banklarning depozit portfelini shakllantirish instrumentlaridan foydalanish amaliyotini takomillashtirish tijorat banklari rentabelligi va likvidligining oqilona darajasini ta'minlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Buning sababi shundaki, depozitlarning bahosi bankning foiz marjasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Banklarning aktiv operatsiyalardan oladigan daromadlarining pasayishi depozitlarning bahosi o'zgarmagan sharoitda ham foiz marjasining pasayishiga olib keladi. O'z navbatida, depozitlarning foiz stavkasi foiz marjasining quyi chegarasiga ta'sir ko'rsatadi. Foiz marjasining yuqori chegarasiga esa, aktiv operatsiyalarning daromadliligi ta'sir ko'rsatadi. Lekin shuni e'tiborga olish joizki, depozit bazasining barqarorligi ham aktiv operatsiyalarning hajmi va daromadliligiga ta'sir etish yo'li bilan foiz marjasining yuqori chegarasiga ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida daromad keltirmaydigan aktivlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ining nisbatan yuqori ekanligi, muddati o'tgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'ining balandligi depozitlarning foiz stavkasini oshirishga to'sqinlik qiladi, foiz marjasining yuqori chegarasini pasayishiga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

### **Bitiruv malakaviy ishining natijalaridan quyidagi xulosa va takliflarni keltirish mumkin:**

Mamlakatimizda moliya-kredit tizimini yanada rivojlantirish borasida hukumatimiz tomonidan izchil ravishda islohotlar olib borilmoqda. Natijada mamlakatimiz bank tizimida yangidan yangi yutuqlarga erishilmoqda. Mamlakatimiz bank tizimini yanada rivojlantirish va yakuniy natijalarga erishish maqsadida quyidagi yo'nalishlarda chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

✚ tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini xalqaro andoza va me'yorlar, jumladan, bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalari (Bazel III) asosida takomillashtirish;

✚ banklarning kapitallashuv darajasi va likvidligini yanada oshirish, depozit bazasini kengaytirish va diversifikatsiyalash, aktivlar, jumladan, kredit portfeli sifatini yanada yaxshilash orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash;

✚ banklarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini yanada kuchaytirish, ularning investitsion jarayonlardagi ishtirokini kengaytirib borish;

✚ kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlarni yanada faollashtirish;

✚ ko'rsatilayotgan bank xizmatlari turlarini ko'paytirish va sifatini yanada yaxshilash, xususan, bank infratuzilmasini rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joylarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llagan holda masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish ko'lamlarini yanada kengaytirish;

✚ mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan yetakchi xalqaro reyting agentliklari yuqori reyting baholarining olinishi hamda muntazam ravishda yangilab borilishiga erishish;

✚ moliya-bank tizimi faoliyatining qonunchilik bazasini xalqaro andoza va tamoyillar asosida yanada takomillashtirish bo'yicha ishlar davom ettirildi<sup>20</sup>.

---

<sup>20</sup> Марказий банкнинг “2015 йилда пул-кредит соҳасидаги вазият ва монетар сиёсатнинг 2016 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари” мавзусидаги маърузаси ([www.cbu.uz](http://www.cbu.uz))

Yuqorida keltirilgan yo'nalishlarda olib borilgan chora-tadbirlar natijasida 2015 yilda bir qator ijobiy natijalarga erishildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori bilan tasdiqlangan 2011 – 2015 yillarda bank tizimini isloh qilish va rivojlantirish dasturining yakunlovchi yilida mazkur dasturda belgilangan bank tizimi faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha o'sish sur'atlari prognoz ko'rsatkichlarining bajarilishi ta'minlandi.

Bunda bank tizimi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari xalqaro mezonlarga muvofiq “yuqori darajada”gi baholarga mos kelmoqda.

Jumladan, so'nggi yillar davomida O'zbekiston bank tizimi faoliyati “Mudis”, “Standart end Purs” va “Fitch reytings” kabi yetakchi reyting agentliklari tomonidan “barqaror” deb baholamoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, agar 2011-yilda mamlakatimizning 13 ta tijorat banki yuqori reyting baholariga sazovor bo'lgan bo'lsa, 2014 yilda respublikamizning barcha 26 ta banki ana shunday bahoga loyiq ko'rildi<sup>21</sup>.

Bank tizimida olib borilayotgan chora-tadbirlar natijalari keyingi yillarda ham o'z natijalarini bermoqda. 2015 yil yakunlariga qaraydigan bo'sak, bank tizimi kapitalining yyetarlilik darajasi qariyb 23,6 foizni, shuningdek, likvidlik darajasi 64,5 foizni tashkil etdi. Bu kapital yyetarlilik ko'rsatkichi umumiy qabul qilingan xalqaro standartlardan 3 marta, bank likvidligi esa 2 marta oshiq bo'lishini ta'minladi.

Bank tizimi infratuzilmasini yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar o'z natijalarini bermoqda. Mamlakatimiz bank tizimiga statistik jihatdan e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2016 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, respublikada 26 ta tijorat banki faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan 7 tasi xususiy va 5 tasi chet el kapitali ishtirokidagi banklar hisoblanadi. Jumladan, respublika hududlarida tijorat banklarining 854 ta filiali faoliyat ko'rsatmoqda.

---

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi\ Xalq so'zi, 2015 yil 17 yanvar, b.1

Banklar o'z mijozlariga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish va ularga yaqin bo'lish maqsadida mini-banklar tashkil qilishgan. 2016 yil 1 yanvar holatiga ko'ra aholi zich joylashgan manzillar hamda ishlab chiqarish hududlariga yaqinlashtirish maqsadida tijorat banklarining 4 295 ta mini-banki va maxsus kassalari tashkil etilgan bo'lib, shularning 2 221 tasi qishloq joylardagi aholi va fermer xo'jaliklariga sifatli bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Shuningdek, aholidan kommunal va boshqa to'lovlarni bevosita yashash joylariga borib qabul qilish maqsadida 505 ta ixtisoslashtirilgan ko'chma kassalar xizmati tashkil etilgan.

Bank-moliya xizmatlari bozori infratuzilmasini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish maqsadida Kredit axboroti milliy instituti, Garov reestri tizimi va "Kredit-axborot tahliliy markazi" kredit byurosi faoliyatlari takomillashtirib borilmoqda.

Hozirda tijorat banklarining barcha filiallari internet tarmog'i orqali "garov.uz" saytiga ulanib, garov munosabatlariga tegishli barcha ma'lumotlar "Garov reestri" davlat unitar korxonasi ma'lumotlar bazasiga kiritilishi ta'minlanmoqda.

Davr talabidan kelib chiqqan holda bank xizmatlari ko'lamini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda kengaytirish bo'yicha ham amaliy ishlar olib borilmoqda. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning zamonaviy va mijoz uchun qulay turlaridan biri bo'lgan bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimining qo'llash doirasi kengayib, tadbirkorlar o'rtasida tobora ommalashib bormoqda.

2016 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar soni 1 061 mingtani, shundan "Internet-banking" va "Bank-mijoz" dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar 81,5 mingtani, "Mobil-banking" va "SMS-banking" xizmatlaridan foydalanuvchilar 979,5 mingtani tashkil etib, ularning soni 2014 yilga nisbatan qariyb 2 barobarga ko'paydi.

Bank plastik kartalari muomalasini kengaytirish va takomillashtirish

bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida so'nggi 5 yil davomida muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni 2 barobardan ziyodga oshdi va 2016 yil 1 yanvar holatiga ularning umumiy soni 16,3 mln. donadan ortiqni tashkil etdi . Yuqorida biz mamlakatimiz bank tizimini yanada barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida erishilgan bank tizimidagi o'zgarishlarni ko'rib chiqdik. Ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki keyingi yillarda bank tizimida naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirish bo'yicha izchil ravishda chora tadbirlar amalga oshirilgan va yuqori natijalarga erishilgan. Shuningdek, tijorat banklarning kapitallashuv darajasini oshirish borasida amaliy ishlar qilingan va ularning kapitllashuv darajasini kerakli darajada oshirishga erishilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.:O'zbekiston, 2009 yil.
2. "O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami". – Toshkent, 2007 y
3. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni. 21 dekabr 1995.
4. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 25 aprel 1996.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 10 noyabrdagi «Mikrokreditbank» aktsiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 7 noyabrdagi "Bank tizimini yanada rivojlantirish va bush pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"™ Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 iyuldagi «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 18 maydagi «YOsh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ga doyr qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» Farmoni.
9. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2006 yil 19 dekabrdagi "Tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 15 apreldagi "Bank tizimini yanada islox qilish va erkinlashtirishning chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Mikromoliyaviy xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori 19.02.2007 y. № 37.

12. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. Toshkent, "O`zbekiston", 2009.
13. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo`l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O`zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi. Xalq so`zi. 17 yanvar 2015 yil.
14. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o`zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo`l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. O`zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi. Xalq so`zi. 16 yanvar 2016 yil.
15. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi. Xalq so`zi. 2014 yil 18 yanvar.
16. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2012 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi. Xalq so`zi, 2013 yil 19 yanvar.
17. Karimov I.A. "2012 yil vatanimiz taraqqiyotini Yangi bosqichga ko`taradigan yil bo`ladi // O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O`zbekistonni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi

- ma'ruzasi". Xalq so`zi, №14 (5434). 2012 yil 20 yanvar.
18. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O`zbekistonni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so`zi, 2010 yil 30 yanvar.
  19. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir. - Prezident Islom Karimovning O`zbekistan Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so`zi, 2010 yil 28 yanvar.
  20. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. Toshkent, "O`zbekiston", 2009.
  21. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Maxkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so`zi, 2009 yil 14 fevral.
  22. Karimov I.A. Eng asosiy mezon - xayot xaqiqatini aks ettirish. T.: O`zbekiston, 2009. - 24 b.
  23. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi majlisining Qarori. «2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to`g`risida», 2009 yil 13 fevral.
  24. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Maxkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so`zi, 2009 yil 14 fevral.
  25. Karimov I.A. Eng asosiy mezon - xayot xaqiqatini aks ettirish. T.: O`zbekiston, 2009. - 24 b.

26. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi majlisining Qarori. «2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to`g`risida», 2009 yil 13 fevral.
27. Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida. - Toshkent: O`zbekiston, 1995. -266 b.
28. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid. barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -Toshkent: O`zbekiston, 365 b.
29. Maxmudalieva YO.A. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va uni baholash. Iqtisod fan. nomzodi dis. avtoreferati. -Toshkent: Bank-moliya akademiyasi, 2001. -22 b.
30. Omonov A.A. Bank kapitalini samarali boshqarish masalalari: Iqtisod fanlari nom. dis. Avtoreferati. -Toshkent: O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat va jamiyat qurilishi akdemiya, 2004. -21 b.
31. Ruzmetov Sh.B. O`zbekiston tijorat banklari depozit bazasini mutahkamlash yo`llari. Iqtisod fan. nomzodi dis. avtoreferati. -Toshkent: Bank-moliya akademiyasi, 2009. - 18 b.
32. Tuxtabaev U.A. Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo`llari. i.f.n. diss. Avtoreferati. -Toshkent: Bank-moliya akademiyasi, 2007. -20b.
33. Nurmurotov X. Kichik va o`rta biznesni moliyaviy qo`llab-quvvatlashda tijorat banklarining o`rni// Bozor, pul va kredit. -Toshkent, 2002. - № 6. -s. 3-6.
34. O`zbekiston Respublikasi yillik statistik to`plami. "Xayot nashr", 2013. 344 b.
35. Синки Дж. Ф. Управление финансами коммерческих банков. Перевод с англ. -М.: Саталлахй, 1994. -820 с.
36. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк. Управление и операции. -М.: ИПЦ Вазар-Ферро, 1999. -320 с.
37. Маркова О.М. Коммерческие банки и их операции. -М.: Юнити, 1995. - 288 с.
38. Макаров О.М. Коммерческие банки и их операции. -М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1995.-288 с. .

39. Полфреман Д. Основы банковского дела. Пер. с англ. -М.: ИНФРА-М, 1996.-624 с.
40. Колесникова В.И. Банковское дело. -М.: Финансы и статистика, Statistishes Bundesant.2000. п. 96.
41. Deutsche Bank - Animal Report. 2005.
42. MF International Financial Statistics.
43. <http://www.uba.uz/>
44. <http://www.cbu.uz/>
45. <http://www.gov.uz/>
46. <http://www.bankir.ru>
47. <http://www.nbu.com>
48. <http://www.thebanker.com>
49. <http://www.bpk.uz>